

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 809.15-1

BBK: 81.2-5 (ИрН)

И-78

**Isamatova Nigora Kutpillayevna**

**TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN  
SO‘ZLARNING FONETIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK  
TAHLILI**

Tadqiqot turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ishning asosiy maqsadi turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning holatini, fonetik moslashuvi, ularning morfologik shuningdek, undagi ba’zi bir ma’no o‘zgarishlarini o‘rganishga qaratilgan. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar mavzusi bo‘yicha shu kungacha qilingan ilmiy ishlarni kuzatish, tahlil etish, o‘zlashmalarni manbalardan ajratish, fonetik solishtirish, so‘z turkumlari bo‘yicha va o‘zaro ma’no xususiyatlarini yoritish ishning asosiy maqsadidir.

5A 5120102 – Lingvistika

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor **Quronbekov A.**

Toshkent– 2015

**Himoyaga ruxsat berildi:**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

f.f.n. Ibrohimova Sh.B.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Fakultet: Sharq filologiyasi

Magistratura talabasi: Ismatova N.

Kafedra: Eron-afg‘on filologiyasi

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Quronbekov A.

O‘quv yili: 2014-2015

Mutaxassisligi: 5A120102 Lingvistika

**« TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING  
FONETIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK TAHLILI » MAVZUSIDAGI  
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING  
ANNOTATSIYASI**

**Mavzuning dolzarbligi.** Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarni o‘rganish ancha murakkab va o‘ta qiziqarlidir. Hozirgi fors tili lug‘at tarkibida turli tillardan kirgan o‘zlashmalar mavjud bo‘lib, turkiy o‘zlashmalar ana shu o‘zlashmalarning bir qismi hisoblanadi. Turkiy o‘zlashmalar fors tili leksikologiyasidagi dolzarb mavzularidandir, chunki ular boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar singari fors tili lug‘at tarkibini boyishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Mazkur magistrlik dissertatsiyasi turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ishning asosiy maqsadi turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning holatini, fonetik moslashuvi, ularning morfologik shuningdek, undagi ba’zi bir ma’no o‘zgarishlarini o‘rganishga qaratilgan. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar mavzusi bo‘yicha shu kungacha qilingan ilmiy ishlarni kuzatish, tahlil etish, o‘zlashmalarni manbalardan ajratish, fonetik solishtirish, so‘z turkumlari bo‘yicha va o‘zaro ma’no xususiyatlarini yoritish ishning asosiy maqsadidir.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi va ahamiyati.** Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik tahlili birinchi marotaba o‘rganilib tadqiq etildi. Ishdagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, bunda leksikologiya va leksikografiya bo‘yicha qo‘llanmalar yaratish, maxsus kurslar o‘qitish, shuningdek kelasi tuziladigan lug‘atlarda yordamchi material sifatida foydalansa bo‘ladi.

**Ilmiy rahbar**

\_\_\_\_\_ **f.f.d., prof. A. Quronbekov**

**Magistratura talabasi**

\_\_\_\_\_ **N. Ismatova**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning O‘zbekistonda va undan tashqarida o‘rganilishi.....</b>	<b>9</b>
1.1. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning O‘zbekistonda o‘rganilishi...9	
1.2. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning chet elda o‘rganilishi.....13	
I bob bo‘yicha xulosalar.....	24
<b>II bob. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik tahlili.....</b>	<b>25</b>
2.1. Hozirgi fors tilidagi va klassik fors tilidagi fonetik tizimning qiyosiy tahlili.....	26
2.2. Turkiy o‘g‘uz tilining fonetik tizimi.....	28
2.3. Turkiy va forsiy fonetik tizimning qiyosiy tahlili.....	29
2.4. Turkiy fonetik tizimning fors fonetik tizimiga ta’siri va aks ta’siri.....	32
II bob bo‘yicha xulosalar.....	50
<b>III bob. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning morfologik tahlili...51</b>	
3.1. Ot.....	52
3.2. Sifat.....	57
3.3. Son.....	60
3.4. Fe’l.....	60
3.5. Olmosh.....	61
3.6. Ravish.....	61
3.7. So‘z yasovchi qo‘shimchalar.....	63
III bob bo‘yicha xulosalar.....	65
<b>IV bob. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik tahlili.....67</b>	
4.1. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik kengayis.....	69
4.2. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik torayishi.....	72
4.3. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan yangi ma’no kasb etgan so‘zlar.....	76
4.4. Ma’no o‘zgarishisiz turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar.....	79
IV bob bo‘yicha xulosalar.....	80
<b>Xulosa.....</b>	<b>81</b>

<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....</b>	<b>84</b>
--	-----------

## Kirish

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir.

Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarini o'rganish, minba'd ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi lozim. O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin<sup>1</sup>.

Tilning lug'at tarkibining rivoji ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug'at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o'tishi bilan o'ziga xos ma'lum o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ma'lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta'sirida, obyektiv ravishda, ma'lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so'z qabul qilinishi ham shunday. Til o'zida vositalar, imkoniyatlar bo'lgan holda boshqa, o'zga tildan so'z olmaydi. Qabul qilinuvchi so'z ma'lum, biror yangi tushuncha anglatsa, yangi informatsiya tashisa, yoki u yoki bu semantik yukka ega bo'lsagina tilga kirishi mumkin<sup>2</sup>.

O'zlashma – bu biror bir tildan boshqa bir tilga lug'at birliklarining ko'chishidir. O'zlashmalar, shuningdek, o'zlashma so'zlar deb ham yuritiladi. O'zlashmalar biz avval aytib o'tganimizdek tilning lug'at boyligini oshiradi, yangi o'zaklar, so'z birikmalari va terminlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'zlashmalar biror-bir tilga kirib kelgandan so'ng o'sha tilga moslashadi, o'zida grammatik, semantik, fonetik va orfografik o'zgarishlarni o'tkazadi. Aynan mana shu adaptatsiya o'zlashmalarni xalqaro so'zlardan ajratib

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: Sharq, 1999. – B.32.

<sup>2</sup> Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 48.

turadi. Xalqaro soʻzlar esa oʻzida begona tilga xos xususiyatlarni saqlab qoladi. Bu fonetik, orfografik, grammatik va semantik xususiyatlar boʻlishi mumkin.

Oʻzlashmalarning til sistemasiga singib ketishi maʼlum sharoit va xususiyatlarga bogʻliq. “Oʻzbek tili leksikologiyasida” quyidagi sharoitlar muhim deb beriladi:

1) oʻzlashma soʻz uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan boʻlishi;

2) chet soʻz oʻzlashtiruvchi til grammatik klasslari, kategoriyalariga mos kelishi;

3) soʻz uni qabul qilgan tilda fonetik qayta shakllanishi;

4) chet soʻz uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi;

5) chet soʻz uni qabul qiluvchi til soʻz yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi;

6) chet soʻz uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

a) oʻzlashma soʻz maʼnosi aniq boʻlishi;

b) oʻzlashma soʻz maʼnosi uni qabul qilgan tilda differensiyatsiya qilingan boʻlishi;

7) chet soʻz uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak<sup>3</sup>.

Bu yuqoridagi keltirilgan xususiyatlar borasida tilshunoslarning fikrlari deyarli bir xil, yaʼni oʻzlashmalarning oʻzlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam oʻrnamshib, singib ketishi uchun qoʻyiladigan talablar barcha tillarda oʻxshash deb taʼkidlanadi. Xususan, fors tilida ham oʻzlashmalar qaysi tildan kirganligiga qaramay yuqoridagi talablarga boʻysunadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Til ijtimoiy hodisadir, shuning uchun jamiyatdagi har bir oʻzgarish unda oʻz aksini topadi. Jamiyatdagi bu holat, yaʼni oʻzgarishlar boshqa tillarda boʻlgani singari fors tiliga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan.

Eron oʻzining uzoq oʻtmishi mobaynida turli xil davlatlar va millatlar bilan aloqada boʻlgan. Bu kabi aloqalarning asosiy omili Eron xalqining boy madaniyati, geografik joylashuvi, xususan, Buyuk ipak yoʻli chorrahasida joylashganligidir.

---

<sup>3</sup> Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 85.

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarni o‘rganish ancha murakkab va o‘ta qiziqarlidir. Hozirgi fors tili lug‘at tarkibida turli tillardan kirgan o‘zlashmalar mavjud bo‘lib, turkiy o‘zlashmalar ana shu o‘zlashmalarning bir qismi hisoblanadi. Turkiy o‘zlashmalar fors tili leksikologiyasidagi dolzarb mavzularidandir, chunki ular boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar singari fors tili lug‘at tarkibining boyishiga xizmat qiladi.

O‘zlashmalar ustida olib boriladigan tadqiqotlar odatda arabiy va yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar ustidan olib boriladi, chunki ular miqdor, tilda qo‘llanishi, semantik bo‘yoqdorligi jihatidan fors tilidagi boshqa o‘zlashmalarga nisbatan ancha ustundir. Ammo fors tili leksikasining o‘zlashma qatlamini faqat mana shu ikki turdagi o‘zlashmalar tashkil etmaydi, boshqa tillardan o‘zlashmalar ham mavjud. Ulardan biri turkiy tillardan kirgan o‘zlashmalardir va L.S. Peysikovning fikricha, ular miqdori jihatidan fors tilida uchinchi o‘rinda turadi<sup>4</sup>. Masalan, M. Moinning فرهنگ فارسی “Farhang-e fārsi”sida 3000 ga yaqin turkiy leksik birliklar berilgan<sup>5</sup>. Ammo ularning miqdori o‘rtacha uch mingni tashkil etsa ham, barchasi hozirgi zamon badiiy va ilmiy adabiyotlarda, gazeta va jurnallarda, internetda nashr qilingan tekstlarda uchramaydi, ularning aksariyati iste’moldan chiqib ketgan yoki og‘zaki nutq va shevaga xos so‘zlardir. Shu boisdan mazkur magistrlik dissertatsiyamizda asosan badiiy va ilmiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar va internet manbalarida uchratilgan turkiy o‘zlashmalar tadqiq etildi.

Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib shuni aytish kerakki, turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan bir qator dolzarb masalalari mavjud:

1) hozirgi kunga kelib ham turkiy o‘zlashmalar to‘liq o‘rganilmagan va ularning ba’zilari haqiqatdan ham turkiy tillardan kirganligi xususida aniq xulosalar yo‘q;

---

<sup>4</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка.–М.:Наука, 1975.–С. 47.

<sup>5</sup> Саидова Д. Доктор М. Мўъиннинг “Фарханг-е форси” луғатида туркий сўзлар семантикаси // Марказий Осиёда луғатчилик: / анъаналар ва hozirgi замон илмий мактаблари. – Тошкент, 2003. – Б. 79.

2) ularning aksari iste'moldan chiqib ketgani uchun hozirgi kunda qaysilari ishlatilishi va ayni paytda qanday mavzularga oidligi qiziq;

3) fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning semantik o'zgarishlari o'rganilmagan.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning holatini, fonetik moslashuvi, ularning morfologik, shuningdek, undagi ba'zi bir ma'no o'zgarishlarini o'rganish tadqiqotimizning asosiy maqsadi qilib belgilandi. Shu bilan birga ishning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:

1) turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlar mavzusi bo'yicha shu kungacha qilingan ilmiy ishlarni kuzatish, tahlil etish va ularni o'zaro solishtirish;

2) turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarni manbalardan ajratish;

3) turkiy o'zlashmalarning o'zlashish tarixini, sabablari va omillarini o'rganish;

3) turkiy o'zlashmalarning fonetik tahlilini yoritib berish;

4) turkiy o'zlashmalarni mustaqil so'z turkumlari bo'yicha tahlil qilish va ularning morfologik moslashuv jarayonini kuzatish;

5) turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning ma'nolarini va ulardagi semantik o'zgarishlarini o'rganish: a) ma'no torayishi; b) ma'no kengayishi; d) yangi ma'no kasb etishi; e) ma'no o'zgarishsiz ko'chishi.

**Tadqiqot obyekti.** Eron tilshunosligidagi kam o'rganiladigan muammolardan biri – turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

**Tadqiqot predmeti.** Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning miqdori, fonetik, morfologik, semantik tahlili va undagi o'zgarishlar ilmiy ishning predmeti sifatida belgilandi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarni fonetik, morfologik va semantik tahlil etish, shuningdek, ularning semantikasidagi ba'zi o'zgarishlarni o'rganish mazkur magistrlik dissertatsiyasida ko'riladigan asosiy masaladir.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar to‘liq tadqiq etilmagan, ammo mavzuning o‘rganilishi uzoq o‘tmishga ega. Xususan, Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘sha davr fors tilidagi bir qancha turkiy o‘zlashmalar haqida muhim ma’lumotlar qoldirgan. Shuningdek, H. Zarinezoda<sup>6</sup>, L.S. Peysikov<sup>7</sup>, D. Rahimli<sup>8</sup>, A. Quronbekov<sup>9</sup>, M. Noyibiy<sup>10</sup> kabi qator olimlar ham turkiy o‘zlashmalar bo‘yicha tadqiqot olib borishgan.

**Tadqiqotning nazariy asoslari va metodi.** Ilmiy tadqiqot ishiga metodologik asos sifatida mashhur eronshunos olimlarning, xususan, leksikologiya, terminologiya va so‘z yasalishida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarning (A. Quronbekov, L.S. Peysikov, Yu.A. Rubinchik, A.A.Vohidov) va eronlik tilshunos olimlarning (D. Rahimli, M. Noyibiy) ishlarini oldik. Ishni bayon etishda o‘zbek, rus va fors tilshunosligidagi o‘zlashmalar va terminlar mavzusiga oid ishlardan foydalanildi. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida sinxron tahlil, struktur-statistik tahlil, sistem yondashuv va komponent semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot manbalari.** Ilmiy tadqiqot ishiga manba sifatida fors tilida chop etilgan badiiy va ilmiy adabiyotlar, gazetalar, internet ma’lumotlari olindi (adabiyotlar ro‘yxatida qayd etilmoqda). Manbalar tarkibida turkiy o‘zlashmalarni ajratib olish uchun M. Moinning فرهنگ فارسی “Farhang-e fārsi” (Tehron, 1371 h.sh), Ali Akbar Dehxudoning لغتنامه “Luyatnāme” (Tehron, 1372 h.sh) va M.A.Gaffarovning “Персидско-русский словарь” (Москва, 1976) lug‘atlaridan foydalanildi. Shuningdek, turkiy o‘zlashmalarning turkiy tillardagi ma’nolarini aniqlash uchun Yu. V. Shekaning “Турецко-русский и русско-турецкий словарь” (Москва, 2006) va Shukru Holuk Akalin tahriri ostidagi “Türkçe sözlük” (Ankara, 2005) lardan, misollar yozishda esa Sodiq Hidoyatning “سه قطره خون” asari, Jalol ole Ahmadning “سه تار”

<sup>6</sup> Заринезад Г. Азербайджанские слова в персидском языке (в период Сефевидов): Дисс. ...канд. филол. наук. – Баку, 1955.

<sup>7</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975.

<sup>8</sup> دردانه رحيملى. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم یونس وحدتی هلان. – تیریز: نشر اختر، ۱۳۸۱.

<sup>9</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2009.

<sup>10</sup> محمد صادق نایبی. واژگان ترکی در زبان پارسی. تهران. ۱۳۸۰.

hikoyalar to'plami, fors nasriy adabiyoti namunalarini jamlagan "Эрон адабиёти хрестоматияси" dan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Ilmiy tadqiqotimizda erishilgan natijalardan turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarni tartibga solish, fonetik, morfologik va semantik jihatdan guruhlash mumkin. Ishdagi dalillar va xulosalardan leksikologiya va leksikografiya bo'yicha qo'llanmalar yaratish, maxsus kurslar o'qitishda, shuningdek, keyingi tuziladigan lug'atlarda yordamchi material sifatida ham foydalansa bo'ladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** "Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarni fonetik, morfologik va semantik tahlili" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ushbu tadqiqotda birinchi marta fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning fonetik, morfologik va semantik tahlili, xususan, fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning mustaqil so'z turkumlari bo'yicha, ma'no torayishi, kengayishi, yangi ma'no kasb etishi va ma'no o'zgarishsiz ko'chishi tadqiq qilindi.

**Dissertatsiyaning qisqacha mazmuni.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Kirish qismida mavzuning asosiy tavsifi, tadqiqotdan ko'zda tutilgan maqsad va kutilayotgan natijalar to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi.

Birinchi bobda turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlar bo'yicha qilingan ishlar, ularning farqlari va unda berilgan fikrlar tahlil qilingan.

Ikkinchi bobda turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning fonetik tahlili haqida so'z yuritiladi.

Uchinchi bobda turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning morfologik tahlili yoritilgan.

To'rtinchi bobda turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning semantik tahlili bayon qilingan.

# **I BOB. TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING O‘ZBEKISTONDA VA UNDAN TASHQARIDA O‘RGANILISHI**

## **1.1. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning O‘zbekistonda o‘rganilishi**

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar haqida ilk bor qariyb besh yarim asr avval Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bayon qilgan. Navoiyning mazkur asarida ikki til - turkiy va forsiy o‘zaro qiyoslanib o‘rganilgan. Muhimi “Muhokamat ul-lug‘atayn” ikki tilni shunchaki chog‘ishtirish uchungina yozilgan emas. Unda ikki toifa tilining bir-birida qaytarilmaydigan qirralari o‘zaro chog‘ishtirilib, xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritib berilgan<sup>11</sup>.

Alisher Navoiy mazkur asarda turkiy tilning imkoniyatlari forsiynikidan kam emasligini isbotlab bergan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” Navoiyning tilshunoslikdagi ulug‘ kashfiyotidir. Asar tilshunoslikda yangi-yangi sohalarni, tilni o‘rganishning yangi yo‘li va usullarini ochib berganligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy ushbu asari bilan sharq tilshunosligida emas, dunyo tilshunosligida birinchi bo‘lib tipologiya sohasini, tillarni o‘zaro chog‘ishtirib o‘rganish ishini boshlab berdi. To‘g‘ri, bundan burun yaratilgan ayrim lug‘atlar, grammatik asarlarda tildagi biror hodisani ochib berish uchun, o‘rni bilan, muayyan tilga chog‘ishtirib ketilgan joylari ham bor. Lekin ular turli tillarni chog‘ishtirma o‘rganishga bag‘ishlanmagan edi. Navoiy o‘z asarida tilshunoslikdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi. U turli oilaga kiruvchi ikki til - turkiy va forsiyni o‘zaro chog‘ishtirib, tipologiyaning leksik-semantik, fonologik, morfologik aspektlarini ishlab chiqdi<sup>12</sup>.

Bu asarda bir qator mavzular keltirilib, mana shu mavzularga oid so‘zlar fors tilida yo‘q ekanligi va bular aynan turkiy tillardan kirganligi ta’kidlanadi. Masalan shunday deyiladi:

---

<sup>11</sup> Содиқов Қ.П. “Муҳоқамату-л-луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. Тошкент, 2011. – Б. 5.

<sup>12</sup> Ко‘rsatilgan asar. –Б. 5–6.

Yana ot anvoidaki, to‘buchoq va arg‘umoq va yobu va totu yo‘sunlug‘ - borini turkcha - o‘q ayturlar. Va otning yoshindag‘i ko‘prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni “kurra” derlar, o‘zga “toy” va g‘o‘nan va do‘nan va tulan va chirg‘a va lang‘a deguncha fasihiroqlari turkcha derlar va ko‘pragi buni bilmaslar.

Va otning iyarin agarchi “zin” derlar ammo ko‘prak ajzosin, misli “jibilgir” va “hano” va “to‘qim” va “jorlig” va “ularchoq” va “g‘anjug‘a” va “jilbo‘r” va “qushqun” va “qantar” va “tufak” va “to‘qa” yo‘sunluq ko‘pin turkcha ayturlar. Va qamchini agar “toziyona” derlar, ammo “buldurgasin” va “chubchurnasin” turkcha ayturlar.

Va “jiba” va “javshan” va “ko‘ha” va “qolg‘anduruq” va “qorbichi” va “kechim” va “oha” yo‘sunlug‘ urush asbobin ham turk bila ayturlar.

Va ma‘hudiy albisadan misli “dastur” va “qalpoq” va “navruziy” va “to‘ppi” va “shirdog” va “dakla” va “yalak” va “yog‘lig” va “terlik” va “qur” yo‘sunlug‘ nimalarni borisin turk tili bila ayturlar.

Yeguliklardin agarchi qo‘y muchalaridan ba‘zig‘a ot qoyupturlar, ammo “orqa”ni va oshug‘lug‘ ilik”ni va yon “so‘ngak”ni va “qoburg‘a”ni va “ilik”ni va “o‘rta ilik” va “bo‘g‘uzlag‘u”ni turkcha ayturlar. Va yana ba‘zi yemaklardan “qaymog” va “qatlama” va “bulamog” va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va kumoch va tolg‘onni ham turkcha ayturlar. Va bu nav juz‘iyotqa mashg‘ulluq qilsa bag‘oyat ko‘p topilur<sup>13</sup>.

Va kelduk qushqaki, anda muqarrar va mashhur ilbosun o‘rdakdur. Va sort el ilbosunni xud bilmas. Dag‘i turk o‘rdakning erkagin “so‘na” va tishisin “bo‘rchin” der. Va sort bunga ham ot qo‘ymaydur. Va nar va moda ikkalasin “morg‘obi” der. Va o‘rdakning anvoi bilur qushchilar qoshida, masalan, jo‘rka va erka, suqtur va olmabosh va choqirqanot va temirqanot va adaldag‘a va alapuka va bog‘chol va bu yo‘sunlug‘ yetmish nav’ bo‘lurkim, sort borisin murg‘obi o‘q der. Va agar bir-biridin mutamoyiz qilsa, turkcha ot bila-o‘q aytur. Va qimizni va suzmani va

---

<sup>13</sup> [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com/index.php) /index.php

kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur"<sup>14</sup>.

Hozirgi fors tilida "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida berilgan ko'plab so'zlar iste'moldan chiqib ketgan, chunki oradagi vaqt katta, bu esa tabiiy hol, albatta. Ammo ba'zi so'zlar borki, ular fors tili lug'at tarkibidan muqim joy olgan, haligacha iste'molda va ularni turli xil manbalarda uchratishimiz mumkin. Masalan, اردک *ordak* 'o'rdak' so'zi ana shunday so'zlardan:

همچنين يك گونه به نام اردک سر سفید در معرض انقراض و ۱۲ گونه نیز آسیب پذیرتلقی شده اند<sup>15</sup>.

*Hamčenin yek gunē be nām-e ordak-e sar-sefid dar ma'raz-e enyerāz va davāzdah gunē niz āsibpazir talayyi šodeand.*

Shuningdek, "oq bosh" (*oxyura leucocephala*) nomli ordakning bir turi yo'qolib ketish xavfida va yana o'n ikki turini ham xavf ostida deb hisoblashgan.

Muhokamat ul-lug'ataynda berilgan قیماق *γeymāy* 'qaymoq' so'zini ham hozirgi fors tilidagi manbalarda uchratishimiz mumkin:

قیماق محصولات حیوانی بوده که از سرشیر گاو و گوسفند به دست می آید<sup>16</sup>.

*γeymāy mahsulāt-e heyvāni bude ke az saršir-e gāv va gusfand be dast miāyad.*

Qaymoq chorva mollari mahsuloti bo'lib, sigir va qo'y sutidan olinadi.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan nafaqat so'zlar, balki چی-*čī* so'z yasovchi suffiksi haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan: "Yana bir adolar borki, ba'zi alfozning so'ngg'ida "ch", "yoy" ki, "chi" lafzidir, ortturlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo'qdir, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, qo'rchi va suvchi va xizonachi va kerak-yarog'chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi axtachi yo'sinlig' ko'pdir.

<sup>14</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукамал асарлар тўплами.– Тошкент: Фан, 2000. Т.16. – Б. 18.

<sup>15</sup> سام خسروی فرد. میراث طبیعی ایران. – تهران: دفتر پژوهشهای فرهنگی، ۱۳۸۴. ص. ۶۴.

<sup>16</sup> (قیماق) <http://www.boorsekala.com/cook/p/96/3791/%20قیماق/>

Hunar va peshada andoqki, qushchi va borschi va qo‘ruqchi va tamg‘achi va jibachi va yo‘rg‘achi va halvochi va kemachi va qo‘ychi.

Andoqki, qush hunarida dag‘i bu istiloh, bordur, andoqki, qozchi va quvchi va turnachi va kiyikchi va to‘vushqonchiki, sort lafzida yo‘qtur. Va alar mazkur bo‘lgonlarning ko‘pin turkcha ayturlar”<sup>17</sup>.

Tilshunoslik tarixida yaratilgan asarlar orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar ustidan qilingan tadqiqotlar orasida ham katta ahamiyatga ega.

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar A. Quronbekovning “Fors tili leksikologiyasi”<sup>18</sup>ning turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan “Turkiy tillardan o‘zlashmalar” qismida ham yoritilgan. Unda turkiy tillardan fors tiliga o‘zlashmalar kirib kelishi qadimgi zamonlarga borib taqalishi qayd etilgan. Qadimgi xitoy, yunon va arab manbalaridan va bir qator O‘rta Osiyo olimlarining bizga qoldirgan asarlaridan, jumladan, Beruniyning “Osori baqiya”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Hazrati Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlaridan ma’lumki, Eron xalqlari bilan Turon xalqlarining o‘zaro munosabatlari qadimgi zamonlardan boshlab mavjud bo‘lgan<sup>19</sup>.

Mazkur “Fors tili leksikologiyasi” dagi turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan qismning boshqa bu mavzudagi ishlardan eng katta farqi unda Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridan misollar keltirilganligidir. Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bir qator mavzular keltirib, bu so‘zlarning muodili fors tilida yo‘q ekanligi va bular fors tiliga kirganligini ta’kidlagan, deb asardan misollar keltiriladi. Biz bunday holatni turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan boshqa ishlarda, ayniqsa, xorijda qilingan ishlarda uchratmaymiz. Mavzuni yoritish davomida turkiy o‘zlashmalarning grammatik moslashuvi, asosan morfologik moslashuvi va boshqa turkiy leksik birliklar – turkiy suffikslar haqida ham ma’lumotlar berilgan. Turkiy o‘zlashmalarning

---

<sup>17</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 2000. Т.16. – Б. 18.

<sup>18</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2009.

<sup>19</sup> Ko‘rsatilgan asar. – Toshkent, 2009. – B. 49.

hozirgi kundagi holati haqida shunday deb yozilgan: “Hozirgi davrda Eronda faoliyat olib borayotgan “Farhangeston” (Akademiya) fors tilini barcha chet tili o‘zlashmalaridan, jumladan, turkiy tillardan o‘zlashgan lug‘at birliklaridan tozalamoqda. Shuning uchun hozirgi kunda hamma eronliklar uchun o‘z ona tiliday bo‘lib qolgan آفا *āyā*, قاشق *qāšōy*, قیچی *qeyčī*, چاقو *čāyū*, سماخ *šomāx*, قارچ *qārč*, قیسی *qeysi* va shunga o‘xshash so‘zlar yangi forscha so‘zlar bilan almashtirilsa hech ajablanadigan joyi yo‘q”<sup>20</sup>.

## 1.2. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning chet elda o‘rganilishi

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar mavzusiga oid ishlar orasida L.S. Peysikovning “Лексикология современного персидского языка”<sup>21</sup> kitobidagi turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan qismi alohida o‘ringa ega. Mazkur ilmiy asar aslida fors tili leksikologiyasiga bag‘ishlangan. Unda asosan fors tili leksikologiyasiga oid muammolar va uning o‘ziga xos tomonlari yoritilgan. Birinchi bo‘lim hozirgi fors leksikasining etimologik aspektlariga bag‘ishlangan va unda fors tili lug‘at tarkibining asosiy boyish yo‘llari, fors tilining boshqa tillar bilan o‘tmishda va hozirgi zamondagi aloqalari, shuningdek, o‘zlashmalar va ularning fors tiliga kirib kelishi haqida ma’lumot berilgan. Muallif o‘zining mazkur ilmiy asarida fors tilining boshqa tillar bilan aloqalari juda chuqur ekanligini ta’kidlaydi: “Fors tilining qo‘shni va qo‘shni bo‘lmagan, qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan yigirma besh asrlik lisoniy aloqalari hozirgi fors tili lug‘at tarkibida o‘zining chuqur izini qoldirgan”<sup>22</sup>. Hozirgi kunda fors tilidagi o‘zlashmalar yuzasidan olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlar uchun muhim adabiyotlardan biri bo‘lgan mazkur asarda hozirgi fors tili lug‘at tarkibidagi chet tillardan o‘zlashmalar haqida ham muxtasar, ammo muhim ma’lumotlar berilgan.

<sup>20</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2009. – B. 53.

<sup>21</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975.

<sup>22</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 30.

L.S Peysikov o‘zining mazkur kitobida turkiy o‘zlashmalarni “Turkiy-mog‘ul o‘zlashmalar” sarlavhasi ostida o‘rgangan. U ham o‘zlashmalar avvalo ikki xalqning o‘zaro aloqalari mevasi ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, mo‘g‘ul tilidan kirgan o‘zlashmalarga ham to‘xtalib, ularni turkiy so‘zlardan ajratib olish mushkulligini qayd etadi. Turkiy o‘zlashmalar orasida yuzlab so‘zlar iqtisodiy, madaniy, ma’muriy, maishiy va turli sohalarga taalluqli so‘zlarni tashkil etadi. Ayniqsa ko‘plab so‘zlar harbiy sohaga, maishiy, savdo-sotiq, ovchilik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, qo‘l sa‘noati va boshqa sohalarga aloqador so‘zlar. Alohida o‘zlashmalar Eronda hukmronlik qilgan turkiy sulolalar (Safaviylar, Qojorlar va bosh.)ning saroy hayotiga oid so‘zlar deb ta’kidlaydi<sup>23</sup>.

Shuningdek, turkiy o‘zlashmalarning fors tili so‘z yasalişidagi ishtiroki haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Turkiy leksik birliklar fors tilidagi boshqa leksik birliklar bilan birga yangi so‘zlar yasalişida bemalol qatnasha oladi. Masalan, قاپيدان *yāpidan* ‘tishlamoq’, ‘qopmoq’ fe’li struktur jihatdan otdan fe’l yasaliş yo‘li bilan yasalgan va unda turkiy leksik birlik *yāp* qatnashgan. Bu kabi bir nechta fe’llarni hozirgi fors tili lug‘at tarkibida uchratishimiz mumkin: كوچيدان *kučidan* ‘ko‘chmoq’, چاپيدان *čāpidan* ‘o‘g‘irlamoq’. Bundan tashqari boshqa so‘z turkumlariga oid leksemalar yasalişidagi ishtirok haqida ham to‘xtalib o‘tgan: توپخانه *tupxāne* ‘artilleriya’, دگمسازی *dogmesāzi* ‘tugmasozlik’, جلو دار *jelovdār* ‘avangard’ va boshqa so‘zlar. Turkiy o‘zlashmalarning so‘z yasalişida, aynan qo‘shma fe’llar yasalişidagi ishtiroki ko‘proq ekanligini ta’kidlaydi. Ma’lumki, fors tilida ot yoki boshqa so‘z turkumlari va ko‘makchi fe’llarning birikuvi bilan yasalgan fe’llar qo‘shma fe’llar deyiladi. Qo‘shma fe’llar ikki qismdan ot va fe’l qismdan tashkil topganini inobatga olsak, bu turdagi fe’llarda ham turli o‘zlashmalar, xususan, turkiy o‘zlashmalar ham ishtirok etishi mumkin. Hozirgi fors tili fe’llarining struktur turlari orasida keng tarqalgani va rivojlangani qo‘shma fe’llardir<sup>24</sup>. Shuning uchun ham turkiy o‘zlashmalarni sodda fe’llarga nisbatan qo‘shma fe’llarda ko‘proq uchratamiz. Bunda hozirgi fors tili lug‘at

<sup>23</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. – С. 47.

<sup>24</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001. – С. 216.

tarkibidan o‘rin olgan ot, sifat, ravish va boshqa so‘z turkumlariga oid turkiy so‘zlar yordamchi fe‘llar bilan birikib qo‘shma fe‘llar yasaydi. Olim bunday qo‘shma fe‘llarga quyidagilarni misol tariqasida beradi: کوچ کردن *kuč kardan* ‘ko‘chmoq’, بزرگ کردن *bazak kardan* ‘bezamoq’, تپق کردن *topoγ kardan* ‘tepkilamoq’.

Turkiy tillardan nafaqat so‘zlar balki, boshqa leksik birliklar – so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham o‘zlashgan. L.S. Peysikov bu borada ham to‘xtalib o‘tib, bir nechta affiks va yarimaffikslar haqida ma’lumot beradi<sup>25</sup>. Masalan, چى–*či* suffiksi haqida fikr yuritir ekan, bu suffiks forsiy va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalarga qo‘shilib kasb-hunar ma’nosini anglatuvchi leksemalar yasashini qayd etadi, shuningdek, boshqa qo‘shimchalar haqida ham ma’lumot beradi:

تاش–*tāš* suffiksi. Bu qo‘shimcha arxaik so‘z yasovchi qo‘shimchalar qatoriga kirib, fors tilida undan ba’zi bir so‘zlar yasalgan. Masalan, خواجه تاش *hājetāš* ‘janob’, خيلتاش *xeyltāš* ‘hammaslak’, تيمورتاش *teymurtāš* ‘Temurtosh’(ism).

الو–*ulu* (اله–*ule*, لو–*lu*) suffiksi. Bu suffiks erkalash va kichraytirish ma’nosidagi so‘zlarni, shuningdek, antroponim va toponimlar yasaydi. Masalan, زنگوله *zangule* ‘qo‘ng‘iroqcha’, مشکوله *maškule* ‘kichkina mesh’, کوچولو *kučulu* ‘mitti’, ‘jajji bola’, قزولو *γozulu* ‘kichkina qo‘zi’, ابدارلو *abdarlu* ‘Abdarlu’(joy nomi).

Bundan tashqari باشى–*bāši* va بگی–*begi* yarimaffikslari haqida ham ma’lumot berilgan. Xususan, باشى–*bāši* nafaqat turkiy so‘zlar tarkibida, balki boshqa forsiy va arabiy so‘zlarga ham qo‘shilib ‘rahbar’, ‘boshliq’ degan ma’nolarni anglatuvchi so‘zlarni yasaydi. يوزباشى *yuzbāši* ‘yuzboshi’, باغبانباشى *bāybānbāši* ‘bog‘bonboshi’, حمالباشى *hammālbāši* ‘hammolboshi’. بگی–*begi* turkiy yarimaffiksi ham so‘zlarga qo‘shilib ‘boshliq’ ma’nosini anglatuvchi yangi so‘zlarni yasaydi, masalan, دادبگی *dādbegi* ‘sudya’, قلعبگی *γal‘abegi* ‘qal’a rahbari’, دريابگی *daryābegi* ‘Daryobegi’

<sup>25</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. – С. 50.

(ism). Yu. A. Rubinchik esa yuqoridagilardan tashqari لاخ -*lāx* qo‘shimchasini ham turkiy suffiks sifatida qayd etadi<sup>26</sup>.

L.S Peysikovning “Лексикология современного персидского языка” asarining turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan qismi haqidagi fikrlarimizga yakun yasab shuni aytish lozimki, bu mavzu qisqagina yoritilgan bo‘lsa ham, ko‘plab muhim ma’lumotlar berilgan. Bu kitob ko‘plab eronshunoslar uchun muhim adabiyotlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Chet elda bu mavzu bo‘yicha qilingan ilmiy ishlardan biri ozarbayjonlik tilshunos olim Durdoni Rahimlining “واژه های ترکی در زبان فارسی” nomli kitobidir. Bu kitob 2002 yili doktor Yunus Vahdati tomonidan fors tiliga tarjima qilinib, Tabrizda chop etilgan.

Muallif so‘zini Ozarbayjonlik olim H. Zarinezoda birinchi bo‘lib bu mavzuga qo‘l urgan degan fikr bilan boshlaydi. Shuningdek, u Zarinezodaning ishi<sup>27</sup> faqatgina Safaviylar davridagi turkiy o‘zlashmalar ustidan tadqiq etilgan, hozirgi fors tilida esa bunday so‘zlar ko‘proq ekanligini aytadi. U mazkur fikrini Zarinezodaning quyidagi gapiga murojaat qilib tasdiqlashga harakat qiladi: “U (Zarinezoda) yozadi: Biz faqat Safaviylar davridagi fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarni tadqiq etdik. Hozirda bunday so‘zlarning miqdori u davrga nisbatan ko‘proqdir”<sup>28</sup>. D. Rahimli hozirgi fors tili deganda ko‘proq og‘zaki tilni nazarda tutadi. U og‘zaki tilni Tehronda shakllangan, keyinchalik butun Eronda tarqalgani va hozirda adabiy til bilan farqlanishini ta’kidlaydi. Aynan mana shu masala uni bu ishga qo‘l urishiga sabab bo‘lganini aytib o‘tadi.

U forsiy va turkiyzabon xalqlarning aloqalari haqida fikr yuritar ekan, bu aloqalar uzoq o‘tmishga ega ekanligini, geografik, tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, adabiy va diniy sharoitlar bu ikki zabon xalqlarini yonma–yon qilib qo‘yganligini va bu aloqalarning boshlanishi Doro hukmronligiga borib taqalalishini yozadi. Sosoniylar davrida ham turkiy va eroniy xalqlarning o‘zaro

<sup>26</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001. – С. 142.

<sup>27</sup> Заринезад Г. Азербайджанские слова в персидском языке (в период Сефевидов): Дисс. ...канд. филол. наук. – Баку, 1955.

<sup>28</sup> دردانه رحيملى. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم يونس وحدتى هلان. تيريز: نشر اختر، ۱۳۸۱. ص. ۲.

aloqalari bo‘lgan deb ta’kidlaydi. U o‘z fikrini M. Qoshg‘ariy va Abu Rayhon Beruniy, H. Zarinezodaning ma’lumotlariga asoslanib izohlashga harakat qiladi.

D. Rahimli turkiy o‘zlashmalarining fors tiliga kirib kelishida Erondagi turkiylarning roli katta deb hisoblaydi va shunday yozadi: “Agar mazkur omillarga Eronda istiqomat qiladigan taxminan 30 millionlik turkiylarning sonini ham qo‘shsak, ikki forsiy va turkiy zabon xalqlar o‘rtasidagi aloqalarning ildizlari juda qadimiyligi oshkor bo‘ladi”<sup>29</sup>. Ularning Eronga kelib qolishi borasida Ozarbayjonlik tilshunos olim T. Hojiyevning fikrlariga tayanadi. Xullas, D. Rahimli o‘z tadqiqotini boshlanishida yuritgan fikrlari asosan bu mavzuga oid va unga aloqador bo‘lgan manbalarga va olimlarning fikrlariga tayanganiga guvoh bo‘lamiz.

Bu ilmiy ish boshqa tadqiqotlardan shunisi bilan ajralib turadiki, unda asosan og‘zaki til va turli shevalarda uchraydigan turkiy o‘zlashmalar o‘rganilgan. Muallif jami 200 dan ortiq turkiy leksik birliklarini o‘rgangan va ularning ba’zilari adabiy tilda mavjud emas. Bu borada u shunday yozadi: “Biz og‘zaki fors tilida turkiy tillardan kirgan ba’zi so‘zlarni uchratishimiz mumkinki, ularni hech qachon adabiy fors tilida uchratib bo‘lmaydi va albatta, bular orasida sanalgan so‘zlar boshqa tillardan kam emas, shu jumladan, ‘kiyim’ va ‘qo‘lda tikilgan etakli ayollar libosi’ ma’nosidagi *سکمه* *sokme*, ‘qand’ ma’nosidagi *سالمة* *sālme* va ‘tepki’ ma’nosidagi *تپه* *tepe*, ‘fitna’, ‘hiyla’ ma’nosidagi *النج* *ālenj* va shu kabi so‘zlarni adabiy tilda uchratib bo‘lmaydi”<sup>30</sup>. D. Rahimli yuqorida berilgan va boshqa shu kabi bir qancha so‘zlar fe’llardan yasalganligini ta’kidlaydi.

*sökmek* → [*sokme*] *سکمه*

*salmaq* → [*sālme*] *سالمة*

*tepmek* → [*tepe*] *تپه*

Birinchi bo‘limda turkiy sodda so‘zlar tahlil etilsa, ikkinchi bo‘limda yasama o‘zlashmalar yoritilgan. Birinchi bo‘limda turkiy til grammatikasi nuqtai nazaridan sodda so‘z shaklidagi o‘zlashmalar tahlil etilganligi va ma’nolari yoritilganligini

دردانه رحیملی. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم یونس وحدتی هلان. تیریز: نشر اختر، ۱۳۸۱. ص. ۵.

<sup>30</sup> Ko‘rsatilgan asar – B. 9.

guvohi bo‘lamiz. Ikkinchi bo‘limda esa turkiy o‘zlashmalar struktur jihatdan tahlil qilingan. U bu bo‘limda turkiy tillarning o‘zida turli xil affikslar yordamida yasalgan fors tilidagi turkiy so‘zlarni o‘rgangan. Ularni quyidagi turlarga taqsimlab chiqadi:

1)  $ه$  (-e) qo‘shimchasi bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar: باسمه *bāsmē* ‘nashr’, ‘matoga rasm tushirish’, بغمه *boyme* ‘sharf’, دلمه *dolme* ‘do‘lma’, قيمه *qiyme* ‘qiyma’, ديشلمه *dišlame* ‘dishlama’ (qand bo‘lagi), سالمه *sālme* ‘shirin choy’.

2)  $ق$ ,  $ا$ ,  $اق$  (- $γ$ , -*ak*, -*āγ*) suffikslari bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar. Uning fikricha fors tilidagi eng ko‘p turkiy so‘zlar aynan mana shu shakldagi so‘zlar ekan: “Fors tilidagi ko‘plab turkiy so‘zlar mana shu suffiks bilan yasalgani tasodif emas. Turkiy tildan fors tiliga kirgan mana shu shakldagi so‘zlarning aksari fe‘l negizi va shu kabi suffikslardan tashkil topgan”<sup>31</sup>. U quyidagi so‘zlarni misol tariqasida keltiradi. ديرک *dirak* ‘tirgak’, قاچاق *qāčāq* ‘kontrabanda’, سراق *sorāq* ‘belgi’, ‘nishon’, اطراق *otrāq* ‘to‘xtash’, ‘dam olish’, يراغ *yarāq* ‘qurol–yarog’, قلق *qelq* ‘xulq-atvor’, ‘qiliq’, قاشق *qāšq* ‘qoshiq’.

3)  $او$  va  $ای$  (-*u* va -*i*) suffikslari bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar. Muallif bunga قاتی *qāti* so‘zini misol qilib beradi. Shu o‘rinda mazkur so‘z haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu leksema fors tilida yakka holda ishlatilmaydi, odatda ko‘makchi fe‘llar bilan birgalikda qo‘shma fe‘llar yasaydi, masalan: قاتی شدن *qāti šodan* ‘aralashmoq’, قاتی کردن *qāti kardan* ‘aralashmoq’. Shuningdek, bu so‘z hozirgi fors tilida پاتی *pāti* so‘zi bilan birgalikda قاتی پاتی *qātipāti* yoki قاتی واتی *qātivāti* shaklida keladi va ‘betartib’ ma’nosini anglatadi.

4)  $اير$  va  $اور$  (-*ir* va -*ur*) suffikslari bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar. Bu turdagi so‘zlarga قسر *qeser* ‘qisir’, قاطر *qāter* ‘xachir’, يغور *yayur* ‘to‘la’, ‘semiz’ kabilar misol tariqasida beriladi.

<sup>31</sup> Ko‘rsatilgan asar – B. 54.

5) -آر va -ار (-ār va -ar) suffikslari bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar. Bu turdagi so‘zlarga چاپار *čāpār* ‘chopar’, سار *sālār* ‘rahbar’, آچار *āčār* ‘kalit’ kabilar misol tariqasida beriladi.

6) -چو va -چی (-ču va -či) suffikslari bilan tugagan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar. Bu turdagi so‘zlarga quyidagilar namuna sifatida berilgan. قیچی *qeyči* ‘qaychi’, قمچی *qamči* ‘qamchi’, ایچی *ilči* ‘elchi’, قایقچی *qāyeyči* ‘qayıqchi’, قاچاقچی *qāčāyči* ‘kontrabandachi’, کشیکچی *kešikči* ‘navbatchi’.

Avval aytib o‘tganimizdek, D. Rahimlining “واژه های ترکی در زبان فارسی” asarida 200 dan ortiq fors tilidagi turkiy lug‘at birliklari o‘rganilgan va tadqiqotning o‘zidan avvalgi va keyingi ushbu mavzu bo‘yicha qilingan ishlardan farqli tomonlari bor.

Birinchi dan D. Rahimlining mazkur ilmiy ishida asosan og‘zaki fors tilidagi turkiy leksik birliklar yoritilgan va muallif buni kirish qismida ta’kidlab o‘tgan. Agar Yu.A. Rubinchik tahriri ostidagi ikki tomlik “Персидско-русский словарь” ikki tillik lug‘atida berilgan turkiy so‘zlarga e’tibor qaratsak, bir qancha og‘zaki tilga oid turkiy so‘zlar borki, ular lug‘at mualliflari tomonidan “разговорные слова” (og‘zaki nutqqa oid so‘zlar) deb berilgan. Masalan: قراچی *qarāči* ‘lo‘li’, قسر *qeser* ‘qisir’, قلُق *qelq* ‘xulq-atvor’, ‘sifat’, اله بله کردن *elebele kardan* ‘maqtanish’<sup>32</sup>.

Ikkinchi dan mazkur asarda ma’lum bir fors tili shevalariga oid turkiy leksik birliklarga ham to‘xtalib o‘tilganki, ularning aksari manbalarda uchramaydi. Masalan, چالمه *čālme* ‘cholma’ (kasallik turi), کژپه *kožpe* ‘qo‘zi’ so‘zlari Kozerun va Shiroz lahjalariga, خچی *xeči* ‘echki’ so‘zi Birjand lahjasiga, درو *derou* ‘chuqur’, دلو *delou* ‘devona’ so‘zlari Karenqon lahjasiga, جلغوز *jelyuz* ‘ahmoq’ Behdinon lahjasiga, ارو *errou* ‘ari’ Luriston lahjasiga, توqli *toyli* ‘qo‘zi’ so‘zi Oshtiyon lahjasiga oid so‘zlar ekanligi qayd etilgan.

Uchinchi dan bu asarda berilgan barcha turkiy o‘zlashmalarning kelib chiqishini yoritib berishga harakat qilingan. Ko‘pgina forsiy lug‘atlarda, masalan, A.A. Dehxodoning لغتنامه دهخدا “Loyatnāme–ye Dehxodā”, M. Moinning “Farhang-

<sup>32</sup> Bu haqida qarang: Персидско-русский словарь. В 2-х томах / под ред. Ю.А. Рубинчика. – М.: Издательская “Русский язык”, 1983.

e fārsi” va H. Amidning “Farhang-e fārsi-ye Amid” izohli lug‘atlarida turkiy so‘zlar qatorida berilmagan سراغ *sorāy* so‘zi aslida turkiy ekanligi va uni ‘so‘ramoq’ fe’lidan yasalganligini ta’kidlaydi<sup>33</sup>.

Mazkur turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan asarni kuzatar ekanmiz, ba’zi bir bahsli joylari ham yo‘q emas. Masalan, u hozirgi fors tilida ‘bog‘’, ‘park’ ma’nosini anglatuvchi باغ *bāy* so‘zi bilan ‘bog‘lam’ ma’nosidagi باغ *bāy* so‘zi aslida bitta ekanligini, ular ‘bog‘lamoq’ fe’lidan kelib chiqqanligini ta’kidlaydi. Ammo mazkur ikkala باغ omonim so‘zlar va lug‘atlarda ham alohida-alohida beriladi. Misol uchun, A.A. Dehxodo lug‘atida bu ikkala so‘z alohida berilgan, biri turkiy tillardan kirgan باغ ‘bog‘lam’ ma’nosida, ikkinchisi esa باغ ‘bog‘’, ‘guliston’ ma’nosida ekanligini va bu so‘z so‘g‘d va pahlaviy tillariga borib taqalishi qayd etilgan<sup>34</sup>. “Этимологический словарь иранских языков” da esa ‘bog‘’ ma’nosidagi باغ so‘zini umumoriy tillardagi *bhaga* so‘ziga borib taqalishini, so‘g‘dcha moniy va xristian matnlarda esa β’γ [bāy] shaklida uchrashi ta’kidlab o‘tilgan<sup>35</sup>. Aksincha turkiy tillarning o‘ziga bu so‘z fors tilidan o‘zlashganligi turkiy tillarning ba’zi bir izohli lug‘atlarida qayd etilgan (masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”<sup>36</sup> va “Türkçe sözlük”<sup>37</sup>). Mazkur dalillarga suyanib shuni aytishimiz mumkinki, ‘bog‘’, ‘park’ ma’nosidagi باغ so‘zi turkiy so‘zlardan emas.

Eronda ham bu mavzu to‘liq o‘rganilmagan. Turkiy o‘zlashmalar haqida ko‘proq leksikografik asarlarda qisman ma’lumotlar berilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, M. Moinning “Farhang-e fārsi”, A. Dehxodoning لغتنامه دهخدا “Lug‘atnāme–ye Dehxodā”, Hasan Amidning “Farhang-e fārsi-ye Amid” kabi fors izohli lug‘atlarida fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar ajratib ko‘rsatilgan, qisman ularning etimologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan, fors va turkiy tillardagi ma’nolari yoritilib berilgan. Ba’zi eronshunoslar turkiy o‘zlashmalar mavzusida ilmiy ish olib borishsa, birinchi bo‘lib mana shu manbalarga murojaat qiladilar.

<sup>33</sup> دردانه رحيملى. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم یونس وحدتی هلان. تیریز: نشر اختر، ۱۳۸۱. ص. ۸۱.

<sup>34</sup> علی اکبر دهخدا. لغتنامه دهخدا. تهران، ۱۳۱۹. ص. ۳۱۹.

<sup>35</sup> Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков.– М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2003. Т.2. – С. 52.

<sup>36</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Т.1. – Б. 349–350.

<sup>37</sup> Türkçe sözlük. Sekizinci baskı, – Ankara, 1998. –S. 433.

Masalan, D. Saidovanning “Doktor M. Moinning “Farhang-e fārsi” lug‘atida turkiy so‘zlar semantikasi” maqolasida<sup>38</sup> M. Moinning lug‘atidan foydalanganini guvohi bo‘lamiz. D.Rahimli esa o‘z asarida “Farhang-e fārsi-ye Amid” lug‘atiga murojaat qilgan. Fors tili izohli lug‘atlarida turkiy leksik birliklarni berish ancha oldinroq fors lug‘atshunosligiga kirgan. Ko‘plab tarixiy lug‘atlarda turkiy leksik birliklar haqida ma’lumot berilgan. Ana shunday leksikografik manbalardan biri Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos-ul-lug‘at” asari o‘z davrining mashhur asari bo‘lib, garchi Hindistonda fors tilida yaratilgan bo‘lsa-da, unda arab, fors, hind va yunon so‘zlari bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli bo‘lgan ko‘plab turkiy so‘zlar ham mavjud (ular 1000 ga yaqin)<sup>39</sup>.

Eronda turkiy o‘zlashmalar mavzusi bo‘yicha qilingan ishlardan biri bu Muhammad Sodiq Noyibiyning واژگان ترکی در زبان پارسی *Vājegān-e torki dar zabān-e pārsi* (“Pors tilidagi turkiy o‘zlashmalar”) kitobidir. Bu kitob 2001-yili Tehronda nashrdan chiqqan. Mazkur kitobda 1000 dan ortiq fors tilidagi turkiy leksik birliklar o‘rganilgan. به کتاب واژگان ترکی در زبان پارسی اثر مهندس محمد صادق نائیبي *negāhi be ketāb-e vājegāne torki dar zaban-e pārsi asar-e mohandes Muhammad Sodeq Noyebi* (“Muhammad Sodiq Noyibiyning “Pors tilidagi turkiy o‘zlashmalar” kitobiga bir nazar”) nomli internetda nashr etilgan maqolada<sup>40</sup> yozilishicha, mazkur kitob 27 ta ishonchli manbalar asosida yozilgan. Bu manbalarni o‘rganishning o‘ziga bir yil ketgan, kitobning o‘zi esa besh yil mobaynida yozib bitkazilgan.

M. Noyibiy fors tiliga turkiy o‘zlashmalar asosan 2 ta kanal orqali kirib kelgan deb ta’kidlaydi:

- 1) turkiy hukmdorlar orqali;
- 2) forsiyzabon turkiy xalqlar orqali.

<sup>38</sup> Саидова Д. Доктор М. Мўйиннинг “Фарҳанг-е форси” луғатида туркий сўзлар семантикаси // Марказий Осиёда луғатчилик: / анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. – Тошкент, 2003. – Б. 79.

<sup>39</sup> Махамдалиев Х. Форс тилига ўзлашган туркий сўзлар оммавий коммуникациянинг бир кўриниши сифатида (тарихий луғатлар асосида) // Марказий Осиёда луғатчилик: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. – Тошкент, 2003. – Б. 54.

<sup>40</sup> <http://atila.persianblog.ir/post/6> (نگاهی به کتاب واژگان ترکی در زبان پارسی اثر مهندس محمد صادق نائیبي)

M. Noyibiy Ashkoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmiylar, Saljuqiylar, Temuriylar, Ilakxoniylar, Oq Qo‘yunliylar, Qora Qo‘yunliylar, Safaviylar, Qojorlar va boshqalar Eronning islomdan keyingi tarixining katta davrida (1100 yil deb hisoblaydi) bu diyorda hukmronlik qildilar va o‘zlari bilan davlat boshqaruviga oid so‘zlarni olib kirdilar deb yozadi. Shuningdek, Erondagi turkiyzabon xalqlarning, ayniqsa ikki tillik shoirlarning o‘rni katta deb hisoblaydi. U Rumi, Xoqoniy, Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy, Soyib Tabriziy, Fuzuliy, Parvin E‘ltisomiy va Shahriyorlarni ana shunday shoirlar qatoriga kirgazadi. Mazkur kitob 200 sahifadan iborat bo‘lib, unda mingta fors tilidagi turkiy leksik birlik taqdim etilgan va muallif so‘zlarning etimologiyasi va ma‘nolarini yoritishga harakat qilgan.

Mazkur kitobga kiritilgan 1000 ta so‘z *واژه اصیل ترکی در پارسی - محمد صادق نائیبی* - محمد صادق نائیبی *یک هزار yek hezār vaje-ye asil torki dar pārsi–Muhammad Sodiq Noyebiy* (“Fors tilidagi mingta asil turkiy so‘zlar-Muhammad Sodiq Noyebiy”) sarlavhasi ostida elektron maqola sifatida berildi<sup>41</sup>. M. Noyibiyning mazkur asarida berilgan turkiy o‘zlashmalarga e‘tibor qaratsak, uning ko‘plab so‘zlarni turkiy ekanligini isbotlash uchun yasalishiga murojaat qilganini guvohi bo‘lamiz. Masalan: اطراق – so‘zini turkiy tildagi “o‘tirmoq” fe‘li negiziga “–oq” (ak) qo‘shimchasi orqali yasalib, fors tilida ‘to‘xtash’, ‘karvonning yo‘lda dam olishi’ degan ma‘nolariga ega deb yozadi.

Shuningdek, ko‘pgina forsiy manbalarda forsha deb qaraladigan *جلو - jelou* so‘zini turkiy tillardan kirganligini va bu so‘z fors tilida ‘oldinga’ va ‘jilov’ degan ma‘nolariga ega ekanligini yozadi. Haqiqatdan ham fors tilida keng ishlatiladigan bu so‘z turkiy tillardan kirgan. Bu ot qadimgi turkiy tilda ‘silji’ ma‘nosini anglatgan *йыл* fe‘lining ‘harakatga kel’ ma‘nosidan *-(a)v* qo‘shimchasi bilan yasalgan (ЭСТЯ.IV.42), keyinchalik so‘z boshlanishidagi “y” undoshi “j” undoshiga aylangan (KPC281)<sup>42</sup>. *یورش yuresh* so‘zi turkiycha ‘yurmoq’ fe‘lidan yasalganligini, fors tilida ‘hamla’, ‘hujum’ kabi ma‘nolarni anglatishni, *ییلای yeylāy* so‘zi “yey” ‘yoz’ so‘ziga “–loq” qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yasalganini, fors

<sup>41</sup> <http://urmu.freeoda.com/meqalelar/dil> (یک هزار واژه اصیل ترکی در پارسی - محمد صادق نائیبی)

<sup>42</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2000. – Б. 102.

tilida esa ko‘proq ‘yaylov’ va ‘dala hovli’ ma’nosiga ega ekanligini qayd etib o‘tadi.

M. Noyibiyning fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan bu asarida boshqa nashrlardan farqli katta miqdorda turkiy leksik birliklar berilgan. Ammo bu kitob Eronning o‘zida juda qattiq tanqidga uchragan. Avvalo mingta so‘zning yuzga yaqini fors tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlarki, ularni biz biror bir manbalarda uchratmaymiz, masalan; ارومچك *orumčak*, آغرق *āyrey*, ايناغ *ināy*, آلامانچي *ālāmānči*, يغمور *yağmur*, تانری *tānri* va boshqa so‘zlar.

Bundan tashqari berilgan mingta o‘zlashmalar orasida forsiy so‘zlar ham borki, muallif ularni turkiy tillardan kirgan deb hisoblaydi. Masalan: آتش *ātaš* ‘olov’, دشمن *došman* ‘dushman’, برابر *barābar* ‘barobar’, خوب *xub* ‘yaxshi’, شاه *šāh* ‘shoh’, اردیبهشت *ordibehešt* ‘O‘rdibehešt’ (oy nomi), جوشیدن *jušidan* ‘qaynamoq’, پرداختن *pardāxtan* ‘to‘lamoq’. U آسمان *āsmān* ‘osmon’ so‘zini turkiy tillardagi “osmoq” fe’li negizi “os” ga “mon” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan deb yozadi<sup>43</sup>. Ammo, “Этимологический словарь иранских языков” da bu so‘z qadimgi fors tilidagi *asman*, o‘rta fors tilidagi *asmān* { ‘sm’n, ’’sm’n } so‘zlariga borib taqalishini, so‘g‘dcha moniy, xristiyan va buddaviylik matnlarda esa ‘osmon’ ma’nosidagi *sm’n* { *smān* } so‘zi uchrashi qayd etilgan<sup>44</sup>. Shuningdek, آتش *ātaš* ‘olov’ so‘zini turkiy tillardagi “otmoq” fe’lidan yasalgan deb ta’kidlaydi<sup>45</sup>, ammo bu so‘z ham eroniy so‘zlar fondiga oid bo‘lib, o‘rta fors tilidagi *ātaxš* so‘ziga borib taqaladi<sup>46</sup>.

Bundan tashqari ba’zi bir arab tilidan kirgan ليلي *layli* ‘tungi’, شاکر *šoker* ‘minnatdor’, عضو *ozv* ‘a’zo‘ kabi so‘zlarni ham aslida turkiy bo‘lgan deb hisoblaydi. Mazkur keltirilgan omillar hisobiga so‘zlarning miqdori mingtaga yetgan.

<sup>43</sup> <http://urmu.freeoda.com/meqalelar/dil> (بک هزار واژه اصیل ترکی در پارسی - محمد صادق نائبی)

<sup>44</sup> Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Т.1, – М.: Восточная литература, 2003. – С. 239.

<sup>45</sup> <http://urmu.freeoda.com/meqalelar/dil> (بک هزار واژه اصیل ترکی در پارسی - محمد صادق نائبی)

<sup>46</sup> Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков.– М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2003. Т.1. – С. 323.

## I bob bo'yicha xulosalar

Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning o'rganilishiga bag'ishlangan bob nihoyasida shuni aytish mumkinki, turkiy o'zlashmalar nafaqat hozirgi vaqtda, balki o'rta asrlarda ham Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ilk bor fors tilidagi turkiy o'zlashmalar haqida qimmatli ma'lumotlarini qoldirgan. Alisher Navoiyning mazkur asarida ikki til - turkiy va forsiy o'zaro qiyoslanib o'rganilgan. Muhimi "Muhokamat ul-lug'atayn" ikki tilni shunchaki chog'ishtirish uchungina yozilgan emas. Unda ikki toifa tilining bir-birida qaytarilmaydigan qirralari o'zaro chog'ishtirilib, xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritib berilgan.

Fors tilidagi turkiy o'zlashmalar A. Quronbekovning "Fors tili leksikologiyasi" ning turkiy o'zlashmalarga bag'ishlangan "Turkiy tillardan o'zlashmalar" qismida ham yoritilgan. Unda fors tiliga turkiy tillardan o'zlashmalar kirib kelishi qadimgi zamonlarga borib taqalishi qayd etilgan. Qadimgi xitoy, yunon va arab manbalaridan va bir qator O'rta Osiyo olimlarining bizga qoldirgan asarlaridan, jumladan, Beruniyning "Osori baqiya", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Hazrati Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlaridan ma'lumki, Eron va Turon xalqlarining o'zaro munosabatlari qadimgi zamonlardan boshlab mavjud bo'lgan. Bundan tashqari Eron olimi M. Noyibiy, ozarbayjonlik D. Rahimli ham o'zlarining qimmatli fikrlarini qoldirganlar. Umuman olganda, turkiy o'zlashmalarga oid mavzular to'liq o'rganilmagan, asosan leksik jihatdan tadqiq etilgan, fonetik, morfologik va semantik moslashuvlar o'rganilmagan.

## **II BOB. TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING FONETIK TAHLILI**

Turkiy o‘zlashmalarning fors tiliga kirib kelishini tahlil qilishda Safaviylar va Qojorlar davrini o‘rganmaslikning iloji yo‘q. Hozirgi fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarning kattagina qismi aynan Safaviylar davrida (1502-1722) o‘zlashgan. Ma’lumki, XVI asr boshlarida Eron siyosiy jihatdan yagona markazlashmagan bir mamlakat bo‘lib, ko‘pgina mayda davlatlarga bo‘linib ketgan edi. 1502 yil Shayx Sayfiddin avlodidan bo‘lgan Ismoil Safaviy o‘n ikki yillik jang-u jadal, urush va vayronagarchilikdan so‘ng yangi bir davlatga asos soladi. U hokimiyat tepasiga chiqqach Eronni yagona davlat ostida birlashtirishga kirishib ketadi. Uning asosiy maqsadi tarqoqlashib ketgan Eronni birlashtirish va kuchli davlat tuzish edi.

Shoh Ismoilning o‘zi hukmronlik qilgan davrda Eron hududida turkiy tilning mavqeini ko‘tarish orqali o‘sha davr uchun o‘ziga xos til siyosatini yurgazishga harakat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Shoh Ismoilning o‘zi turkiylarga mansub bo‘lib, u tarqalib ketgan ozarbayjonlik va boshqa turklarni jamlab, ularning yordamida davlatni boshqarishni maqsad qilib oladi. U o‘zi istagan siyosatni yurgazish uchun turkiy tildan foydalanadi. Turkiy til uning davlatidagi barcha turkiy xalqlarni birlashtiruvchi yagona kuch deb bilar va bu xalqlar uning xizmatida bo‘lishlari kerak edi. Keyinchalik u turkiylarni yuqori, o‘ziga yaqin va ta’sir doirasiga ega mansab va lavozimlarga ko‘taradi. Buning ortidan turkiylar asta–sekin uning asosiy kuchlaridan biriga aylanadi.

Shoh Ismoil davlat tuzilishi va boshqaruv hokimiyatining shakllanishida qatnashgan barcha turkiy qabila vakillari bilan o‘z ona–tilida muloqot qilgan. Buning ortidan turkiy til saroyda katta mavqega ega bo‘ladi va endilikda Eronning boshqa hududlaridan davlat boshqaruvi va saroy xizmatiga ishlash maqsadida kelgan aholi asta–sekin turkiy tilni o‘rganishga qiziqqa boshlaydi. Natijada bu davrga kelib turkiy til Eron hududida rivojlanish bosqichiga ko‘tariladi.

Biz o‘z ishimizda hozirgi fors tili fonetika tizimini hozirgi turk tili fonetik tizimi bilan qiyosiy o‘rganib chiqamiz. Chunki hozirgi turk tili o‘g‘uz lahjasiga asoslangan bo‘lib (turk tili Anado‘lida amal qilgan o‘g‘uz guruhiga tayanuvchi usmonli turkchasi asosida shakllangan), fors tiliga o‘zlashgan turkiy so‘zlar aynan mana shu lahjaga mansub.

## **2.1. Hozirgi fors tilidagi va klassik fors tilidagi fonetik tizimning qiyosiy tahlili**

Hozirgi kunga kelib fors tiliga turkiy tillardan nafaqat o‘zlashmalar, balki fors tili fonetikasiga turkiy tillarning ta’siri bor degan fikrlar ham yo‘q emas. A.Quronbekovning “Klassik fors tili hamda hozirgi fors, dariy va tojik tillari fonemalar tizimining qiyosiy tahlili”<sup>47</sup> maqolasida hozirgi fors tili fonetikasining hozirgi kundagi shaklga kelishida va klassik porsiy-dariy tili fonetikasi bilan farqlanishida turkiy tilning ta’siri borligi qayd etiladi. Bizga ma’lumki, IX asrning oxiridan XVII asrning boshlarigacha bo‘lgan davrda fors tili “klassik fors tili” yoki “forsi-e dariy tili” deb nomlanadi. Bu davrdagi til xususida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va ko‘plab qarashlar, fikrlar va xulosalar bor. Ammo bir narsa ma’lumki, klassik fors tili hozirgi zamon fors tilidan leksik va asosan fonetik jihatdan farqlanib turadi. Klassik fors tilida 8 ta unli, 24 ta undosh fonema mavjud bo‘lgan. Ular quyidagilar:

Unli fonemalar.

Qisqa unli: [a], [i], [u];

Cho‘ziq unli: [ā], [ī], [ū], [ē], [ō].

Undosh fonemalar: [p], [γ], [h], [y], [b], [č], [z], [xw] (x v), [t], [j], [ž], [d], [f], [m], [n], [s], [s], [w], [k], [š], [r], [g], [x], [l].

Hozirgi fors tilida esa 6 ta unli va 2 ta diftong bor, bular quyidagilar:

Qisqa unli: [a], [e], [o];

Cho‘ziq unli: [ā], [i], [u].

---

<sup>47</sup> Қуронбеков А. Классик форс тили ҳамда hozirgi форс, dariy ва тожик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент : ТошДШИ, 2009. – Б. 11–18.

Diftonglar: [ei], [ow].

Agar buni klassik davr fors tilining unlilar tizimi bilan qiyoslasak, shunday o‘zgarishlar yuz berganining guvohi bo‘lamiz:

Klassik fors tili:	Hozirgi fors tili:
--------------------	--------------------

Qisqa i	e qisqa
---------	---------

u	o
---	---

a	a (e)
---	-------

Klassik fors tili:	Hozirgi fors tili:
--------------------	--------------------

Cho‘ziq i	i cho‘ziq
-----------	-----------

ē	
---	--

ū	u
---	---

ō	
---	--

ā	ā
---	---

Klassik fors tilidagi qisqa “i” fonemasi hozirgi fors tilidagi “e” ga, qisqa “u” qisqa “o” ga aylangan. Qisqa “a” fonemasi esa so‘z boshi va o‘rtasida “a” shaklida va so‘z oxiridagi “a” fonemasi “e” fonemasiga o‘zgargan.

Undosh fonemalardagi o‘zgarishlar uncha katta emas, klassik fors tilidagi [ð] ingliz tilidagi dz shaklida talaffuz qilingan. Klassik tildagi “γ” fonemasi hozirgi fors tilida “γ” va “q” shaklida o‘zgargan. Masalan: *yorfe*, *noqte*. Klassik fors tilidagi “xw”, “x(v) hozirgi fors tilida saqlanib qolmagan<sup>48</sup>.

Agar klassik fors tilidagi unli fonemalar tizimini hozirgi Afg‘onistonidagi dariy tili va Tojikistondagi tojik tili unli fonemalari bilan qiyoslasak, ular orasida deyarli farq yo‘qligini guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, u holda hozirgi fors tilidagi unli fonemalar qachon o‘zgara boshlagan va bu o‘zgarishlar yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lgan? A.N. Boldirevning fikricha, IX asrning oxiridan XVI asrning boshlarigacha “Fors adabiy tili morfologiya, sintaksis va lug‘at tarkibi sohasida hech bir mahalliy tUSDagi differensiyatsiyadan nishona ko‘rsatmaydi”. Faqat mana shu davrdan (XVI asrdan) boshlab uchta mustaqil fors, dariy va tojik

---

<sup>48</sup> Куронбеков А. Классик форс тили ҳамда ҳозирги форс, дарий ва тожик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент: ТошДШИ, 2009. – Б. 13–14.

adabiy tiliga bo‘linish boshlanadi. XVI asrdan boshlab bu tilning fonologik tizimida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu hodisa hali jiddiy tadqiqotlarni taqozo qiladi, lekin nazarimizda, bunga Eron ozarbayjoni turklarining ta’siri bo‘lsa ajab emas. Tarixdan ma’lumki, XVI asrdan boshlab Eronda turkiy tilli Safaviylar sulolasi hukmronlik qilgan. Shu sababli fors tiliga ko‘plab turkiy so‘zlar kirib kelgan va fors tili fonologik tizimiga turkiy til talaffuzining ta’siri bo‘lgan ko‘rinadi<sup>49</sup>. Bu maqolada bir qancha fonemalar qiyoslanib tahlil etiladi va shunday xulosaga kelinadi: “Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, klassik fors tilida so‘z o‘rtasi va oxiridagi qisqa, til oldi, ochiq “a” fonemasini hozirgi zamon fors tilidagi “e” fonemasiga aylanishida va cho‘ziq, til orqa “e” fonemasini cho‘ziq, til orqa “i” fonemasiga aylanishida so‘zsiz o‘rta asr ozarbayjon turk tilisining ta’siri bo‘lgan, deb aytsa bo‘ladi”<sup>50</sup>.

## 2.2. Turkiy o‘g‘uz tilining fonetik tizimi

“Fonetika” so‘zi grekcha “phone” – tovush so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tilning tovushlar tizimini o‘rganadi. Inson talaffuz qiladigan tovushlar nutq tovushlari deyiladi va ular nutq organlari ishtirokida hosil bo‘ladi.

Lotin yozuvi asosidagi hozirgi turk alifbosi 1928-yilda qabul qilingan. Mazkur turk alifbosi jahon tilshunosligida barcha fonetik yozuvlar ichida anchayin puxta ishlangan, turk tilining fonetik-fonologik qonuniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan alifbo sifatida tan olingan. Unda harflar soni 29 ta. Shundan 8 tasi unli tovushlarni, 21 tasi undosh tovushlarni ifoda etadi. Bu borada Q. Sodiqov, X. Hamidov, Z. Xudoyberganova, L. Aminova<sup>51</sup>larning ishlariga murojat qilindi.

Turk adabiy tilida sakkiz unli fonema bor: [a], [e], [ɪ], [i], [o], [ö], [u], [ü]<sup>52</sup>.

<sup>49</sup> Куронбеков А. Классик форс тили ҳамда hozirgi форс, дарий ва тожик тиллари фонемалар тизимининг киёсий тахлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент: ТошДШИ, 2009. – Б. 15–16.

<sup>50</sup> Ko‘rsatilgan maqola. – Б. 19.

<sup>51</sup> Содиков К., Хамидов Х., Худойберганова З., Аминова Л. Турк тили. – Тошкент, 2003.

<sup>52</sup> Ko‘rsatilgan asar. –Б. 23.

Bular hosil bo'lish o'rni, til va lablarning holati, og'izning ochilishiga ko'ra shunday guruhlanadi:

A. Hosil bo'lish o'rni va tilning holatiga ko'ra:

1. Orqa qator unlilar: [a], [ɪ], [o], [u]. Turk tilshunosligida bularni *kalın sesliler* (qalin unlilar) deb yuritiladi.
2. Old qator unlilar: [e], [i], [ö], [ü]. Bular *ince sesliler* (ingichka unlilar) dir.

B. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

1. Lablanmagan unlilar (*düz sesliler*): [a], [e], [ɪ], [i];
2. Lablangan unlilar (yuvarlak sesliler): [o], [ö], [u], [ü].

C. Og'izning ochilishiga ko'ra:

1. Keng unlilar (*geniş sesliler*): [a], [e], [o], [ö];
2. Tor unlilar: (*dar sesliler*): [ɪ], [i], [u], [ü].

Turk tilining undoshlar tizimi quyidagi tartibda: [b], [c],[ ç], [d], [f], [g], [ğ], [h], [j], [k], [l], [m], [n], [p], [r], [s], [ş], [t], [v], [y], [z]<sup>53</sup>.

Bulardan [b], [c], [d], [g], [ğ], [j], [l], [m], [n], [r], [v], [y], [z] undoshlari turk tilshunosligida *tonli=sedali* (*yumuşak*) *ünsüzler* ya'ni jarangli undoshlar deb yuritiladi.

Bu tovushlardan [l], [m], [n], [r] sonorlardir. Shuning uchun ularning jufti yo'q. Qolganlari shovqinlilardir. Alifbodagi [ç], [f], [h], [k], [p], [s], [ş], [t] undoshlari esa turk tilshunosligida *tonsuz=sedasız* (*sert*) *ünsüzler* ya'ni jarangsizlar nomini olgan.

[j] fonemasi sirg'aluvchi tovush bo'lib, g'arb xalqlari tillaridan o'zlashgan so'zlardagina keladi<sup>54</sup>.

### 2.3. Turkiy va forsiy fonetik tizimning qiyosiy tahlili

Har bir tilning o'z fonemalar tizimi mavjud bo'lib, bir tildagi fonemalar, boshqa tildagi fonemalardan farq qiladi. Demak, dunyo tillarining fonemalari o'xshash va farqli tomonlarga ega bo'lar ekan. Fonemalar insoniyat rivoji davomida turli shakllarni

<sup>53</sup> Содиков К., Хамидов Х., Худойберганава З., Аминова Л. Турк тили. – Тошкент, 2003. Б-33.

<sup>54</sup> Курсатилган асар – Б. 33.

kasb etadi. Shu sababli ham turli millatlar tilidagi nutq tovushlari – fonemalari bir xil emas. Dunyo tillari orasida o‘zining yuqori mavqeiga ega bo‘lgan fors tili va turkiy tillar fonemalar tizimidagi o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

Fors tili va turkiy tillar boshqa-boshqa til oilalariga mansub va ikkala til fonetikasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Fors tili fonetikasida 29 ta tovush mavjud va ular yozuvda 32 ta harf bilan ifodalansa, turk tili alifbosida mavjud 29 harf 29 tovushni ifodalaydi. Ikkala til unli tovushlari haqida gap borar ekan, turk tili tarkibidagi unlilar fors tilidagi unlilarga nisbatan bir muncha murakkab ekanligini ta’kidlab o‘tish joizdir. Fors tilida mavjud 6 ta unli tovush so‘z tarkibida qaysi tovushlar tarkibida kelishiga qarab o‘z variantlariga egadir ( [i] tovushi cho‘ziq tovush sanaladi, so‘z oxirida boshqa hollarga nisbatan cho‘ziqroq bo‘ladi, [y] tovushidan oldin esa juda qisqa talaffuz qilinadi, shuningdek, jarangli va jarangsiz undoshlardan oldin ham uning cho‘ziqligi turlicha bo‘ladi).

Turk tilidagi unli tovushlarning soni 8 ta bo‘lsa, ulardan ayrimlari talaffuzi jihatidan bir-biriga juda yaqin ( [i] va [ɪ] ).

Fors tilida unli tovushlar tasnifi turk tili unli tovushlari klassifikatsiyasiga nisbatan ancha soddaroqdir, bunga turk tilidagi unlilarning son jihatidan fors tilidagi unli tovushlardan ortiqqligi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Fors tilida unli tovushlar uch yo‘l bilan tasniflanadi. Turk tilida ham unli tovushlar uch yo‘l orqali tasnif qilinadi. Turk tilidagi unlilarning tasniflash yo‘lini fors tilida ham kuzatish mumkin, chunki fors tilida sodda unli va murakkab unli tushunchasi mos keladi, biroq turk tilidan farqli o‘laroq bularni tasniflashda ularni alohida yo‘l, usul deb qabul qilinmagan. Turk tilidagi [ö], [ü], [ɪ] kabi tovushlarni fors tilida uchratmaymiz. Ammo ayrim fors tilidagi tovushlar sifat jihatidan turk tilidagi unlilar kabidir ( fors tilidagi [i] va turk tilidagi [i], fors tilidagi [e] va turk tilidagi [e] tovushlari misol bo‘la oladi). Bundan tashqari turk tilida fors tilidagi mavjud [ā] unli fonemasi uchramadi.

Unli fonemalar tizimida fors tilidagi old lablangan [a] qisqa unlisi turk tilida yo‘q<sup>55</sup>. Shuning uchun boshqa tillardan kirgan [a] qisqa unlisi o‘rniga turk tilida [e] unlisi ishlatiladi<sup>56</sup>.

Hozirgi fors tilidagi cho‘ziq [u] fonemasi hozirgi zamon turk tilidagi qalin [u] tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. Lekin qisqa [o] ni cho‘ziq [u] fonemasiga o‘zgarishida turk tilining ta’siri bo‘lganligiga hech bir dalil isbot yo‘q<sup>57</sup>.

Fors tilida unlilar hosil bo‘lish o‘rni, tilning ko‘tarilish darajasi va lablarning ishtirokiga ko‘ra tasnif qilinadi. Turkiy tillarda esa fors tilidan farqli ravishda, unlilar tizimi tovushlar qatori, tor–kengligi, lablanish–lablanmasligiga ko‘ra tasnif qilinadi. Yana shunga e’tibor qaratish joizki, turkiy tillarda unlilar orasida o‘zaro qarama-qarshi bo‘lganlari ham mavjud. Va shu qarama-qarshiliklar sababli fors tili unli fonemalariga nisbatan o‘z farqli jihatlarini namoyon qiladi. Turk tilida singarmonizm qonuni qat’iy amal qilgani bois har bir qo‘shimcha o‘zak-negizning tabiatiga bog‘liq holda fonetik variantlardan iborat bo‘ladi. Fors tilida esa singarmonizm qonuni amal qilmaydi.

Fors tili va turk tili fonetikasi tarkibidagi undosh tovushlarni tasniflashda ayrim mezonlar bir-biriga o‘xshash va yaqin bo‘lsa, yana ayrimlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, ikkala tilda lablangan undoshlar tarkibiga kiruvchi lab-lab va lab-tish undoshlari sifat jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Fors tilidagi milk-tanglay undoshlar qatoriga kiritilgan [š, ž, č, j] undoshlariga turk tilida til o‘rta undosh tovushlari deya ta’rif beriladi va ularga [ş, ç, j, c] tovushlarini kiritadilar, sifat jihatdan ularni qiyoslaganimizda esa ularning bir xil ekanligini ko‘ramiz. Shuningdek, fors va turk tillaridagi bo‘g‘iz, titroq, portlovchi, sirg‘aluvchi undoshlar ham deyarli bir xil ta’riflanadi.

Fors tilida ikkita diftong: “ey” va “ou” uchraydi. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: *eyvān*, *keyvān*,

---

<sup>55</sup> Куронбеков А. Классик форс тили ҳамда ҳозирги форс, дарий ва тожик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент: ТошДШИ, 2009. – Б.13.

<sup>56</sup> T.Bangu Og‘lu. Türkçenin grameri. - Ankara, 1998.

<sup>57</sup> Куронбеков А. Классик форс тили ҳамда ҳозирги форс, дарий ва тожик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент: ТошДШИ, 2009. – Б.18.

*sougand, xodrou*. Diftonglar soʻzda faqat undosh tovushlardan avval soʻz boshida soʻz oʻrtasida va oxirida uchraydi. Mazkur tadqiqotimizda turkiy tillarda mavjud fonemalarni oʻrganish davomida diftonglar kuzatilmadi.

## 2.4. Turkiy fonetik tizimning fors fonetik tizimiga taʼsiri va aks taʼsiri

### Unli fonemalar

1. Turk tilida [a] unlisi orqa qator, lablanmagan, keng unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til beixtiyor orqaga tortilib, tovush ogʻiz boʻshligʻining orqa qismida yuzaga keladi va yoʻgʻon talaffuz etiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar ishtiroki kam boʻlib, shakllarini oʻzgartirmaydi. Shu sababli lablanmagan deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jagʻ suyaklar pastga harakat qilib, ogʻiz keng ochiladi. Shundan kelib chiqqan holda keng unli deyiladi<sup>58</sup>.

Fors tilidagi [a] tovushi til oldi, keng, ochiq, qisqa tovush boʻlib, uni talaffuz qilishda tilning yonlari pastki tishlarning ichki devorlariga tegadi. Lablar keng va ochiq shaklda boʻladi, yuqori va pastki lablar orasidagi masofa taxminan 2 sm boʻladi. [a] tovushi qisqa tovush sanalsa-da ayrim soʻzlarda u nisbatan choʻziqroq talaffuz qilinadi (درد [dard], گاز [gāz], پیچ [pič] soʻzlaridagi unli tovushlarning choʻziqligi soniya jihatidan bir xil)<sup>59</sup>.

Turkiy tildan fors tiliga [a] unlisi ishtirokidagi oʻzlashgan soʻzlar fors tilida soʻz boshida va soʻz oʻrtasida [ā] ga, soʻz oxirida [e] tovushiga oʻzgargan. Masalan:

[a] ni [ā] ga aylanishi:

Aydin – آیدین [āyidin] – oydin

Arslan – ارسلان [arslān] – arslon

katik – قاتق [γātey] - qatiq

[a] ni [e] ga aylanishi:

yaka – یقه [yāye] – yoqa

<sup>58</sup> Imomova H., Maqsudova M., Toshaliyeva S. Turk tili. - T.,2009.

<sup>59</sup> آواشناسی زبان فارسی. یدالله ثمره. مرکز نشر دانشگاهی

dolma<sup>60</sup> – دلمه [dolme] – do‘lma

2. Turk tilidagi [e] unlisi old qator, lablanmagan, keng unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til orqaga tortilmaydi. Tovush og‘iz bo‘shlig‘ining oldingi qismida yuzaga keladi va qalinlarga ko‘ra ingichka talaffuz etiladi. Shu sababli old qator unli ham deyiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar ishtiroki kam bo‘lib, shakllarini o‘zgartirmaydi. Shu sababli lablanmagan deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jag‘ suyaklarimiz pastga harakat qilib, og‘iz keng ochiladi. Shundan kelib chiqqan holda keng unli deyiladi<sup>61</sup>.

Fors tilidagi [e] tovushi til oldi qator, o‘rta ko‘tarilish, qisqa tovush bo‘lib, bu tovushni talaffuz qilishda til uchi pastki tishlarning orqasida joylashadi. [e] tovushi [i] tovushiga nisbatan qisqa tovush sanaladi, lekin ayrim hollarda [e] tovushining cho‘ziqligi [i] tovushidan ham ko‘proq bo‘ladi ( سيب [sib] va چشم [češm] so‘zlaridagi unliarning cho‘ziqligi soniya jihatidan tengdir)<sup>62</sup>.

Turkiy tildagi [e] unli fonemasi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda so‘z boshida [i] ga, so‘z o‘rtasida [a] fonemasiga o‘zgargan. Turkiy tilda so‘z oxirida [e] fonemasiga tugagan so‘z fors tilida uchratilmadi. Masalan:

[e] ni [i] ga aylanishi:

el – ایل [il] – el

[e] ni [a] ga aylanishi:

ördek<sup>63</sup> – اردک [ordak] – o‘rdak

Senjer – سنجر [sanjar] – Sanjar

yelken<sup>64</sup> – یلکن [yalkan] - yelkan

3. Turk tilidagi [i] old qator, lablanmagan, tor unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til orqaga tortilmaydi. Tovush og‘iz bo‘shlig‘ining oldingi qismida

<sup>60</sup> Türkçe – Farsça genel sözlüğü. Iran –Tehran. 1996. B. 251.

<sup>61</sup> Imomova H., Maqsdova M., Toshaliyeva S. Turk tili. T., 2009.

<sup>62</sup> آواشناسی زبان فارسی. یدالله ثمره. مرکز نشر دانشگاهی

<sup>63</sup> Türkçe – Farsça genel sözlüğü. Iran –Tehran. 1996. B.629.

<sup>64</sup> Doordāne Rahimli. Vāzehā-ye torki dar zabān-e fārsi. B.10.

yuzaga keladi va qalinlarga ko‘ra ingichka talaffuz etiladi. Shu sababli old qator unli ham deyiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar ishtiroki kam bo‘lib, shakllarini o‘zgartirmaydi. Shu sababli lablanmagan deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jag‘ suyaklar pastga harakat qilmaganligi sababli og‘iz keng ochilmaydi. Shu sababli bu unli tor unli deyiladi.

Fors tilidagi [i] tovushi til oldi, yopiq, keng, cho‘ziq tovush bo‘lib, bu tovushni talaffuz qilishda tilning old qismi tanglay tomon ko‘tarilgan bo‘ladi, lekin unga tegmaydi (havo to‘siqqa uchramaydi) va tilning uchi ozod holda bo‘lib, til odatda pastki tishlar orqasida joylashadi, yuqori va pastki tishlar oralig‘i 2-3 mm.ni tashkil qiladi. Yumshoq tanglay yuqoriga ko‘tarilgan bo‘ladi (tortilgan) va havoning burun orqali chiqish yo‘lini to‘sadi. Tovush paychalari tovushni talaffuz qilish holida bo‘ladi, lablar keng yoyiladi. Aslida [i] tovushi cho‘ziq tovush sanaladi, lekin uning cho‘ziqligi uning turlicha joylashuvida bir-biridan farq qiladi. Masalan, so‘z oxirida boshqa hollarga nisbatan cho‘ziqroq bo‘ladi. [y] tovushidan oldin juda qisqa talaffuz qilinadi, shuningdek jarangli va jarangsiz undoshlardan oldin ham uning cho‘ziqligi turlicha bo‘ladi<sup>65</sup>.

Turkiy tildagi [i] unli fonemasi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida [i] ga, shuningdek, so‘z o‘rtasida [o], [e] fonemalariga o‘zgargan. Masalan:

[i] ni [i] bilan ifodalanishi:

iz – ایز [iz] – iz

keşik<sup>66</sup> – کشیک [keşik] – navbatchi

bibi - بی بی [bibi] – amma

[i] ni [o] ga aylanishi:

kaşik – قاشق [yoşoy] – qoshiq

[i] ni [e] ga aylanishi:

katil – قاتل [yätel] – qotil

<sup>65</sup> آواشناسی زبان فارسی. یدالله ثمره. مرکز نشر دانشگاهی

<sup>66</sup> Türkçe – Farsça genel sözlüğü. Iran –Tehran. 1996.

Keyingi sahifalarda ham mazkur kitobdan foydalanilgan.

4. Turk tilidagi [ɪ] tovushi [i] tovushiga nisbatan til orqa, ochiq, artikulyatsiya oʻrniga koʻra nisbatan quyi va orqada joylashgan boʻlib, tovushni talaffuz qilishda lablar xuddi [i] ni talaffuz qilgan kabi holatga keladi, tilning uchi pastki tishlarga tegadi.

Fors tilida [ɪ] tovushi mavjud emas.

Turk tilidagi [ɪ] tovushi fors tilidagi [i] kabi choʻziq boʻlmasada, oʻzlashmalar tarkibida aynan shu tovush bilan oʻrin almashadi.

Turkiy tildan [ɪ] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda soʻz oʻrtasi va soʻz oxirida [i] ga, shuningdek, soʻz oʻrtasida [e] fonemasiga oʻzgargan. Masalan:

[ɪ] ni [i] ga aylanishi:

bacı – باجي [bāji] - opa

kılıç – قلیچ [γelič] – qilich, shamshir

[ɪ] ni [e] ga aylanishi:

kızıl – قزل [γezel] – qizil

hıçkırık – قشقرق [γeşyereγ]

5. Turk tilida [o] tovushi orqa qator, lablangan, keng unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til beixtiyor orqaga tortilib, tovush ogʻiz boʻshligʻining orqa qismida yuzaga keladi va yoʻgʻon talaffuz etiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar beixtiyor dumaloq shaklga kirib, faol harakat koʻrsatadi. Shu sababli lablangan unli deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jagʻ suyaklar pastga harakat qilib, ogʻiz keng ochiladi. Shundan kelib chiqqan holda keng unli deyiladi.

Fors tilidagi [o] tovushi til orqa, yarim ochiq, qisqa tovush boʻlib, uni talaffuz qilishda tilning orqa qismi tanglay tomon koʻtariladi. Yumshoq tanglay havoning burun orqali chiqish yoʻlini yopib qoʻyadi. [o] tovushi qisqa boʻlsada, ayrim hollarda u nisbatan choʻziqroq talaffuz qilinadi.

Turkiy tildagi [o] unli fonemasi ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda soʻz boshi va soʻz ortasida [o] koʻrinishida ifodalanadi. Turkiy tilda soʻz oxirida [o] ga tugagan soʻz fors tilida uchratilmadi. Masalan:

ocak – اجاق [ojāγ] – oʻchoq

otak – اتاق [otāγ] – xona

çomak- چماق [čomoy] - tayoq

6. Turk tilida [u] unlisi orqa qator, lablangan, tor unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til beixtiyor orqaga tortilib, tovush ogʻiz boʻshligʻining orqa qismida yuzaga keladi va yoʻgʻon talaffuz etiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar beixtiyor dumaloq shaklga kirib, faol harakat koʻrsatadi. Shu sababli lablangan unli deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jagʻ suyaklar pastga harakat qilmaganligi sababli ogʻiz keng ochilmaydi. Shu sababli bu unlilar tor unlilar deyiladi.

Fors tilidagi [u] tovushi til orqa qator, yopiq, choʻziq tovush boʻlib, talaffuzida til tanglay tomon koʻtariladi. Yuqori va pastki tishlar orasidagi masofa taxminan 2 mm.ni tashkil etadi. Yumshoq tanglayning yuqoriga koʻtarilishi natijasida havoning burun orqali oʻtish yoʻli yopiladi.

Turkiy tildan [u] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda soʻz oʻrtasida va soʻz oxirida [u] bilan ifodalanadi. Soʻz boshida [u] bilan tugaydigan soʻzlar uchratilmadi. Masalan:

çavuş – چاوش - [čāvuš] – kichik ofitser

hatun – خاتون – [xātun] – ayol, xotin

kuş - قوش [γuš] – qush

küçülü - کوچولو [kučulu] – kichik (bola, qiz)

7. Turk tilidagi [ö] unlisi old qator, lablangan, keng unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til orqaga tortilmaydi. Tovush ogʻiz boʻshligʻining oldingi qismida yuzaga keladi va qalinlarga koʻra ingichka talaffuz etiladi. Shu sababli old qator

unli ham deyiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar beixtiyor dumaloq shaklga kirib, faol harakat ko'rsatadi. Shu sababli lablangan unli deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jag' suyaklar pastga harakat qilib, og'iz keng ochiladi. Shundan kelib chiqqan holda keng unli deyiladi.

Fors tilida [ö] unlisi mavjud emas.

Turkiy tildan [ö] unlisi ishtirokidagi so'zlar fors tiliga o'zlashganda so'z boshi, so'z o'rtasida [o] unlisi bilan, shuningdek, so'z o'rtasida [u] fonemasi bilan ham ifodalanadi. So'z oxirida [ö] bilan tugaydigan so'zlar uchratilmadi. Masalan:

[ö] ni [o] ga aylanishi:

ördek – اردک [ordak] – o'rdak

döşek – [tošak] – to'shak

[ö] ni [u] ga aylanishi:

çöl – چول [chul] – cho'l

8. Turk tilida [ü] old qator, lablangan, tor unlidir. Bu unli talaffuz etilganda til orqaga tortilmaydi. Tovush og'iz bo'shlig'ining oldingi qismida yuzaga keladi va qalinlarga ko'ra ingichka talaffuz etiladi. Shu sababli old qator unli ham deyiladi. Ushbu unli talaffuzida lablar beixtiyor dumaloq shaklga kirib, faol harakat ko'rsatadi. Shu sababli lablangan unli deyiladi. Bu unli talaffuz etilganda jag' suyaklar pastga harakat qilmaganligi sababli og'iz keng ochilmaydi. Shu sababli bu unli tor unlilar deyiladi .

Fors tilida [ü] unlisi mavjud emas.

Turkiy tildan [ü] unlisi ishtirokidagi so'zlar fors tiliga o'zlashganda so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida [u], shuningdek so'z o'rtasida [e] unlisi bilan ham ifodalanadi. Masalan:

[ü] ni [u] ga aylanishi:

ülke – اولكا [ulkā] – o'lka

küçük – كوچك [kuček] – kichik

ötü – اُتُو [otu] – dazmol

[ü] ni [e] ga aylanishi:

kakül – كَاكُل [kākel] –kokil

### **Undosh fonemalar**

1. Turk tilidagi [p] tovushi – lab-lab, portlovchi, shovqinli, jarangsiz tovush bo‘lib, [p] tovushini talaffuz qilishda yumshoq tanglay ko‘tariladi va tovush paychalari titramaydi.

Fors tilidagi [p, b] tovushi – ularni talaffuz qilishda yuqori va pastki lab bir-biriga mahkam jiplashib, havoning o‘tish yo‘lini to‘sadi. Yumshoq tanglay yuqoriga tortiladi va bu havoning burun orqali o‘tish yo‘lini ham to‘sadi. Havo lablar orqasida siqiladi va til keying tovushni hosil qilish holatida bo‘ladi, chunki undosh tovushni talaffuz qilishda qatnashmaydi. Lablar ochilishi zahotiy oq yig‘ilgan havo birdaniga bosim bilan tashqariga chiqadi.

Fors tilidagi [p] tovushi qattiq, jarangsiz, portlovchi, lab-lab tovushdir. Tovushni hosil qilishda tovush paychalari bir-biridan ajralgan holda bo‘ladi, shu sababli ham bu tovush jarangsiz tovush hisoblanadi.

Turkiy tildagi [p] tovushi ishtirokidagi so‘zlar, fors tiliga o‘zlashganda so‘zdagi joylashuvidan qat’iy nazar fors tilidagi [p] tovushi orqali ifodalanadi:

top – تُوپ [tup] – top, koptok

peynir – پَنِيْر [panir] – pishloq

2. Turk tilidagi [b] tovushi – lab-lab, portlovchi, shovqinli, jarangli undosh tovushdir. [b] tovushining artikulyatsiya o‘rni xuddi [p] tovushi kabidir. Lekin:

a) [b] tovushini talaffuz qilishda tebranuvchi faoliyatda bo‘ladigan tovush paychalari bilan farqlanadi.

b) unlilarni talaffuz qilishdan oldin qo‘shimcha nafas olmaslik bilan farqlanadi.

Fors tilidagi [b] tovushi yumshoq, jarangli, portlovchi, lab-lab tovushdir. Bu undosh tovushni hosil qilishda tovush paychalari harakatlanadi va jarang hosil qiladi. Shu sababli ham bu tovush jaranglidir. Lekin [b] tovushining jaranglilik darajasi uning joylashish o‘rniga bog‘liq. Odatda, ikki unli orasida kelganida uning to‘liq jarangli ekanini kuzatamiz. Biron bir jarangsiz undosh yonida, shuningdek so‘zning oxirida kelsa, jarangsizlashadi, hatto shunday hollarda u to‘liq jarangsizlanishi mumkin. Undan tashqari [b] tovushining jarangsizlanish hollari uning jarangli holatidan ham ko‘proq uchraydi. [b] tovushi bilan [p] tovushini bir-biridan farqlovchi asosiy omil bu nafasdir. Chunki fors tilidagi [p] tovushi nafasli emas va shu sababli [b] tovushi to‘liq jarangsizlashganda ham [p] tovushidan osonlik bilan farq qiladi. [b] tovushining yumshoq ekanligi ham uni [p] tovushidan farqlash uchun yana bir omil bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiy tildagi [b] tovushi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda [b] tovushi bilan ifodalanadi. Masalan:

bağ – باغ [bāγ] – bog‘lam

boğça – بېغچه [boγče] – tugun

bataklik – باتلاق [bātlāy] – botqoq

3. Turk tilidagi [t] tovushi til oldi, portlovchi, shovqinli, jarangsiz, tanglay tovushdir. [t] tovushining artikulyatsiya o‘rni til uchining yuqori tish va tanglayga tegishidir. Tovush paychalari titramaydi va tovushni talaffuz qilishda yumshoq tanglay ko‘tarilgan holda bo‘ladi.

Fors tilidagi [t, d] tovushlari – ularni talaffuz qilishda to‘siq til uchi va yuqori tishlarda hosil bo‘ladi. Shu tartibda til uchi yuqori tishlarning orqa qismiga tegadi. Tilning yon tomonlari yon tishlarning tepasidagi tanglayga tegishi sababli, havoning og‘izdan chiqish yo‘li yopiladi. Yumshoq tanglay yuqoriga ko‘tariladi va shu tariqa havoning burundan chiqish yo‘li ham yopiladi. Boshqa nutq organlari esa keyingi tovushni talaffuz qilishga tayyor holda bo‘ladi. Masalan, agar keyingi tovush [u] yoki [o] bo‘lsa, lablar oldinga chiqib, dumaloq shaklga keladi va tilning

orqa qismi yumshoq tanglay tomon tortiladi. Havo og‘izda yig‘ilib turadi va og‘iz ochilishi bilanoq birdaniga tashqariga chiqadi.

Fors tilidagi [t] tovushi qattiq, jarangsiz, nafasli, portlovchi tish undoshidir. [t] tovushini hosil qilishda tovush paychalari ishtirok etmaydi, shu sababli ham bu tovush jarangsizdir. [t] tovushi, shuningdek, nafasli undosh tovush hamdir. Odatda so‘z boshida, urg‘uli bo‘g‘inlarda yoki so‘z oxirida ikki unli orasida kelgan hollariga nisbatan nafas ko‘proq seziladi.

Turkiy tildagi [t] tovushi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda joylashuvidan qat’iy nazar [t] tovushi bilan ifodalanadi:

tulumba – تُلُمْبَه [tolombe] - nasos

otrak – اَتْرَاق [otrāy] – o‘troq

kara kurut - قَرَا قُرُوت [yarā yorut] – qoraqurut (ziravor)

4. Turk tilidagi [d] tovushi til oldi, portlovchi, shovqinli, jarangli tovush bo‘lib, uning artikulyatsiya o‘rni xuddi jarangsiz [t] tovushi kabidir. Ular orasidagi farq:

a) [d] tovushini talaffuz qilishda tovush paychalarining tebranishi;

b) unlilardan oldin nafas olmaslikdadir.

Fors tilidagi [d] tovushi yumshoq, jarangli, portlovchi tovushdir. [d] tovushini hosil qilishda tovush paychalari jarang hosil qilish holatida bo‘ladi. [d] tovushi ikki unli o‘rtasida kelganda to‘liq jarangli bo‘ladi, lekin so‘z boshida va pauzadan oldin jarangsizlashadi. [d] tovushini talaffuz qilish [t] tovushini hosil qilishdek qattiq emas va shuning uchun [d] tovushi yumshoq undosh hisoblanadi. [d] tovushi jarangsizlashganda uni [t] dan farqlash yanada oson bo‘ladi.

Turkiy tilda tarkibida [d] tovushi ishtirok etgan so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda so‘zdagi joylashuvidan qat’iy nazar [d] fonemasi bilan ifodalanadi. Ammo so‘z boshida [d] tovushining [t] fonemasi bilan ifodalanganini ham kuzatdik. Masalan:

[d] ni [d] ga aylanishi:

dadaş – داداش [dādāš] aka

düğme – دگمه [dogme] – tugma

ordu – اردو [ordu] – qo‘shin, armiya; lager

[d] ni [t] ga aylanishi:

döşek – تشك [tošak] – to‘shak

5. Turk tilidagi [k] tovushi til orqa, portlovchi, shovqinli, jarangsiz undosh tovushdir. Bu tovush tilning orqa qismi va yumshoq tanglayning birikuvidan hosil bo‘ladi va shu sababli ham havoning chiqish yo‘lini to‘sib qo‘yadi. Tovush paychalari titramaydi.

Fors tilidagi [k, g] tovushlari tanglay tovushlari hisoblanadi. Ularning har ikkalasi ham ikki xil artikulyatsiya o‘rniga ega: tanglayning old qismi, tanglayning ort qismi. Bu ikki artikulyatsiya o‘rnidan biri qattiq tanglayning markaziy qismida bo‘lsa, boshqasi tanglayning orqa qismida, yumshoq tanglayning markazida joylashgan.

Fors tilidagi [k] tovushi qattiq, jarangsiz, portlovchi tovushdir. [k] tovushini talaffuz qilishda to‘siq yumshoq tanglayning markazida hosil bo‘ladi va tilning orqa qismi yuqoriga ko‘tarilib yumshoq tanglayga tegib turishi sababli havoning og‘izdan chiqish yo‘lini berkitib qo‘yadi. Tilning old qismi ozod bo‘lib, til uchi pastki tishlarga yaqin joylashadi. Yumshoq tanglay yuqoriga ko‘tarilganligi sababli havo burun yo‘lidan chiqqa olmaydi. Lablar keyingi unli tovushni talaffuz qilishga tayyor holatda bo‘ladi. Til pastga tushishi bilan siqilgan havo tashqariga chiqadi. Tovush paychalari [k] tovushini hosil qilishda qatnashmaydi.

Turkiy tildagi [k] tovushi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida [k], [ɣ] tovushlari bilan ifodalanadi. Masalan:

[k] ni [k] ga aylanishi:

kakül – كاكل [kākel] – kokil

keşik – كشيک [keşik] – navbatchi

keklik – ککلیک [kaklik] – kaklik

[k] ni [ɣ] ga aylanishi:

kaçak – قاچاق [ɣāçāɣ] – kontrabanda

kara – قره [ɣare] – qora

katik – قاتق [ɣāteɣ] – qatıq

6. Turk tilidagi [g] tovushi til orqa, portlovchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo‘lib, artikulyatsiyasi xuddi [k] tovushi kabi, ammo:

a) tebranish holatida bo‘lgan tovush paychalarining faoliyati;

b) unlilar oldidan nafas olmaslik bilan farqlanadi.

Fors tilidagi [g] tovushi yumshoq, jarangli, portlovchi tovushdir. [g] tovushini talaffuz qilishda tovush paychalari tebranadi va shunga ko‘ra bu tovush jarangli tovushdir. Uni [k] tovushidan farqlashning eng asosiy omili jarangsizlanishi bo‘lib, jarangli [g] tovushi jarangsizlashganda ham jarangsiz [k] tovushidan osonlik bilan farqlanadi.

Turkiy tildagi [g] tovushi ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida [g] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bundan tashqari so‘z o‘rtasida [ɣ] fonemasiga o‘zgarishiga ham guvoh bo‘ldik. masalan

[g] ni [ɣ] ga aylanishi:

gümruk – گمرک [gomrok] – bojxona

tufang – تفنگ [tofang] - miltiq

[g] ni [ɣ] ga aylanishi:

ilgar – الغار [elɣār] – ilg‘or

7. Turk tilidagi [m] tovushi lab-lab, jarangli tovush bo‘lib, tovush lablarning bir-biriga birikuvidan hosil bo‘ladi, lekin yumshoq tanglay tushirilgan bo‘ladi va shu sababli ham havo burun yo‘li orqali o‘tadi. Tovush paychalari tebranish holatida bo‘ladi.

Fors tilidagi [m] tovushi yumshoq, jarangli, lab-lab, burun tovushidir. Bu tovushni hosil qilishda to'siq ikki lab orasida shunday vujudga keladiki, yuqori va pastki lablar bir-biriga jipslashib, havoning og'iz orqali o'tish yo'lini to'sadi. Yumshoq tanglay pastga tushadi va natijada osonlik bilan burun orqali chiqqa oladi.

Til undoshni hosil qilishda qatnashmaydi. [m] jarangli undoshdir, ammo ba'zi hollarda so'z oxirida, ayniqsa, undan oldin bir jarangsiz undosh turgan bo'lsa u jarangsizlashadi.

Turkiy tildan [m] undoshi ishtirokidagi so'zlar fors tiliga o'zlashganda [m] tarzida talaffuz etildi, ammo so'z boshida [m] fonemasi bilan boshlangan so'zlarni uchratmadik. Masalan:

tuman - تومان [tumān] – tuman (pul birligi)

basma – باسمه [bāsme] – bosma

hanım – خانم [xānom] - xonim

8. Turk tilidagi [n] tovushi til oldi, portlovchi, jarangli tovushdir. Bu tovush til uchining yuqori tishlar tanglayiga tegishi orqali hosil bo'ladi, yumshoq tanglay pastga tushadi va havo burun yo'li orqali chiqadi. Tovush paychalari tebranish holatida bo'ladi.

Fors tilidagi [n] tovushi yumshoq, jarangli, burun tovushidir. Bu tovushning artikulyatsiya o'rnini yuqori milkdir, til uchi yuqori milkning boshlanish qismiga tegadi, milk va tishlar chegarasida jipslashadi. Tilning ikkala yontomoni tanglayning chetiga birlashadi va shu tariqa havoning og'iz orqali o'tish yo'li to'siladi. Lablar va tilning boshqa qismlari keyingi tovushni talaffuz qilish holatida bo'ladi.

Turkiy tildan [n] ishtirokidagi so'zlar ham fors tiliga so'z o'rtasi va so'z oxirida [n] tarzida o'zlashgan, so'z boshida [n] fonemasi ishtirokidagi so'zlar fos tilida uchratilmadi. Masalan:

bıldırçın - بلدرچین [belderčın] - bedana

dinç – دنج [denj] – tinch

9. Turk tilidagi [f] lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz tovushdir. [f] tovushini talaffuz qilishda pastki lab yuqori tishlarga yaqinlashadi, havo pastki labning ichki yuzasidan hamda yuqori tishlar orasidan chiqadi. Yumshoq tanglay ko'tarilgan bo'ladi, tovush paychalari tebranmaydi.

Fors tilidagi [f, v] tovushlarini pastki lab va yuqori tishlar shunday hosil qiladi: yuqori old tishlarning o'tkir uchi pastki labning ichki tomonidagi tepa qismiga yumshoqlik bilan tegadi. Yumshoq tanglay yuqoriga ko'tariladi va havoning burun orqali o'tish yo'lini to'sib qo'yadi. Havo tishlar oralig'idagi masofa hamda pastki lablardan bosim bilan tashqariga chiqadi. Shuningdek, bosim qanday kuchli bo'lsa, sirg'alish darajasi ham shuncha kuchli bo'ladi,

Fors tilidagi [f] tovushi qattiq, jarangsiz, lab-tish tovushdir. [f] tovushini hosil qilishda tovush paychalari bir-biridan ajralgan bo'ladi, shu sababli [f] jarangsiz undosh tovushdir. Sirg'alish so'z boshida va urg'uli holatda so'z oxiridagiga qaraganda ko'proq. Sirg'aluvchi undoshlardan oldin kelgan [f] ning sirg'alishi boshqa o'rinlardagiga nisbatan kamroq eshitiladi.

Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlar tarkibidagi [f] tovushini fors tilidagi [f] tovush ifodalaydi:

fil – فيل [fil] – fil

tufang – تفنگ [tofang] - miltiq

10. Turk tilidagi [v] tovushi lablanish, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovushdir. [v] tovushining artikulyatsiya o'rni xuddi [f] tovushi kabidir, biroq [v] tovushini hosil qilishda tovush paychalari tebranish holatida bo'ladi.

Fors tilidagi [v] tovushi yumshoq, jarangli, sirg'aluvchi, lab-tish undosh tovushidir. Bu tovush jarangli bo'lib, odatda so'z boshida kelganida, ayniqsa urg'uli o'rinda to'liq jarangli bo'ladi. Lekin so'z oxirida, jarangsiz undoshlardan

keyin kelsa gohida qisman, ba'zan esa to'liq jarangsizlashadi. [v] tovushining boshqa tovushlarga qaraganda kamroq, ikki unli o'rtasida esa kam sirg'alishga ega.

Turkiy tilidan o'zlashmalar tarkibidagi [v] tovushini fors tilidagi [v] tovushi aks ettiradi:

yavaş – يواش [yavāš] – sekin

11. Turk tilidagi [s] tovushi til oldi, tanglay, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangsiz tovushdir. Bu tovushni talaffuz qilishda til yon tomonlari qattiq tanglay tomon biroz ko'tariladi, yumshoq tanglay ham ko'tarilgan holda bo'ladi va tovush paychalari tebranmaydi.

Fors tilidagi [s, z] tovushlarini hosil qilishda yuqori va pastki tishlar bir-biriga juda yaqin bo'ladi. Lablar esa keyingi tovushni hosil qilishga tayyor bo'ladi. Fors tilidagi [s] tovushi qattiq, jarangsiz, sirg'aluvchi undosh tovushdir. [s] tovushini hosil qilishda tovush paychalari qatnashmaydi. Shu sababli bu undosh jarangsizdir. [s] tovushidagi cho'ziqlik uning so'zdagi o'rniga bog'liq. [s] tovushi [z] tovushiga nisbatan cho'ziqroq eshitiladi. Bunga sabab [z] tovushida mavjud jarangdir, chunki tovush hosil qilishda kuchlarning bir qismi tovush paychalarini tebratadi.

Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan [s] ishtirokidagi so'zlar fors tilida so'z boshi va so'z o'rtasida [s] bilan ifodalanadi, so'z oxiri [s] fonemasiga tugagan o'zlashmalar fors tilida kuzatilmadi. Shuningdek, so'z boshida [s] fonemasini [z] ga o'zgarganini ham guvohi bo'ldik. Masalan:

[s] ni [s] ga aylanishi:

Senjer – سنجر [sanjar] – Sanjar

saçma – ساچمه [sāçme] – sochma (o'q dori)

tasma – تسمه [tasme] – tasma

[s] ni [z] ga aylanishi:

sigil – زگیل [zegil] - sugal

12. Turk tilidagi [z] tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovushdir. Bu tovush ham [s] tovushi kabi hosil bo'ladi. Lekin farqi shundaki, uni talaffuz qilishda tovush paychalari tebranadi.

Fors tilidagi [z] tovushi yumshoq, jarangli, sirg'aluvchi, og'iz-milk undoshidir. [z] tovushini hosil bo'lishi tovush paychalari bilan birga kechadi. Shuning uchun ham bu undosh jaranglidir. Jarangning miqdori uning hosil bo'lish o'rniga bog'liq. Odatda [z] tovushining boshlanish qismi, u so'z boshida kelganida va undan oldin pauza mavjud bo'lsa jarangsizlashadi. So'z oxirida, pauzadan oldin, shuningdek, jarangsiz undoshlar yonida qisman yoki butunlay jarangini yo'qotadi. Uning sirg'aluvchanligi [s] tovushidan kamroqdir.

Turkiy tildan kirgan [z] tovushi ishtirokidagi so'zlarni fors tilidagi [z] tovushi ifodalaydi:

kızıl – قزل [yezil] – qizil

boğaz – بغاز [boyāz] – bo'g'oz

13. Turk tilidagi [ʃ] tovushi til oldi, o'rta qator, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangsiz undosh tovushdir. [ʃ] tovushining artikulyatsiyasi tilning old qismi al'vealga tegadi va shu paytning o'zida tilning o'rta qismi qattiq tanglay tomon yo'nalishidadir. Shuningdek, bu tovushning muloyimligini keltirib chiqaradi.

Fors tilidagi [š, ž] tovushlari til va tanglayning old qismi vositasida havoning o'tishi uchun tor yo'l hosil qilinadi. Bu shunday tartibda yuz beradi: til uchi yuqoriga ko'tariladi, tilning uchi va old qimining boshlanishi miklning orqa qismi va tanglayning boshlanish qismi oldida bo'ladi. Tilning yon tomonlari yuqori tishlarning ichki devorlariga jipslashadi. Yumshoq tanglay yuqoriga ko'tarilganligi tufayli havoning burun orqali o'tish yo'li yopiladi.

Fors tilidagi [š] tovushi qattiq, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushdir. [š] tovushini hosil qilishda tovush paychalari qatnashmaydi. Shuningdek, [š] tovushi o'zining jarangli juftiga nisbatan cho'ziqroqdir. [i] unlisidan oldin cho'ziqroq eshitiladi.

Turkiy tildagi [ʃ] tovushi ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganida bu tovush fors tilidagi [š] tovushi orqali ifodalanadi:

şişlik – ششلیک [šešlik] – shashlik, kabob

kuş - قوش [γuš] – qush

yavaş – یواش [yavāš] - sekin

14. Turk tilidagi [h] tovushi boʻgʻiz, sirgʻaluvchi, shovqinli, jarangsiz undosh tovushdir. Bu tovush bir-biriga yaqin kelgan tovush paychalari yordamida hosil boʻladi. Keyingi unli tovushni talaffuz qilishga tayyor boʻlgan tovush hosil qiluvchi organlar yoʻlida havoning oʻtishi uchun toʻsiq boʻlmaydi va tovush paychalari tebranmaydi.

Fors tilidagi [h] tovushi qattiq, jarangsiz, sirgʻaluvchi, boʻgʻiz tovushidir. Bu tovushni tovush paychalari hosil qiladi. Bu quyidagicha yuz beradi: tovush paychalarining uchi bir-biriga juda yaqin masofagacha yaqinlashadi. Yumshoq tanglay yuqoriga koʻtarilib, havoning burun orqali oʻtish yoʻlini toʻsadi. [h] tovushining sirgʻalish darajasi uning joylashuviga bogʻliq: soʻz boshida pauzadan oldin, ayniqsa urgʻuli holatda uning sirgʻalishi ikki unli orasida yoki soʻz oxirida kelganiga qaraganda koʻproq boʻladi, lekin baʼzida tovushni hosil qilishda sirgʻalish tovush paychalari bilan birga kechadi.

Turkiy tildan [h] tovushi ishtirok etgan soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda [x] tovushiga oʻzgaradi:

hatun – خاتون [xātun] – ayol, xotin

han – خن [ xān] – xon

hurçin – خورچین [xurjin] - xurjin

15. Turk tilidagi [ç] tovushi til oldi, oʻrta, jarangsiz undosh tovushdir. [ç] tovushini hosil qilishda tilning oʻrta qismi yuqoriga qattiq tanglayga koʻtariladi. Tovush paychalari tebranmaydi.

Fors tilidagi [č] tovushi qattiq, jarangsiz, portlovchi, sirgʻaluvchi tovushdir. [č] tovushini hosil qilishda tovush paychalari ishtirok etmaydi. Shuningdek [č] tovushi qattiq undoshdir, uning sirgʻalishi boʻgʻin boshida, ayniqsa urgʻuli holatda va soʻz oxirida koʻproq [č] oʻzining jarangli juftidan choʻziqroq, lekin shunga qaramay uning choʻziqligi boshqa sirgʻaluvchilarga qaraganda kamroqdir.

Turkiy tildagi [ç] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda, fors tilidagi [č] orqali ifodalanadi:

çabuk - چابك [čābok] - chaqqon

çavuş – چاوش [čāvuš] – kichik ofitser

16. Turk tilidagi [j] tovushi til oldi, oʻrta qator, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovushdir. [j] tovushining artikulyatsiyasi tilning old qismi alʻvealga tegadi va shu paytning oʻzida tilning oʻrta qismi qattiq tanglay tomon yoʻnalishidadir.

Turk tilidagi [j] tovushini fors tilida [ž] tovushi ifodalaydi. Fors tilida [ž] tovushi yumshoq, jarangli, sirgʻaluvchi tovushdir.

Turkiy tildagi [j] ishtirokidagi soʻzlar fors tilida uchratilmadi.

17. Turk tilidagi [r] tovushi til oldi, tanglay, sirgʻaluvchi, jarangli tovushdir.

Fors tilidagi [r] tovushi yumshoq, jarangli, titroq tovushdir. Bu tovushni hosil qilishda til uchi va milk (yuqori milk) qatnashadi. Til uchi yuqori milkka jiplashib, havoning oʻtish yoʻlida toʻsiq hosil boʻladi, tilning yon tomonlari yuqori jagʻ tishlarga jiplashadi, bunda yumshoq tanglay yuqoriga koʻtarilgan boʻlib, havoning burun orqali oʻtish yoʻlini yopib qoʻyadi. Havo til uchining yuqori milkka tinimsiz bir tekis urilishi vaqtida tashqariga chiqadi. [r] tovushining hosil boʻlishida tovush paychalari tebranadi va shu sababli bu tovush jarangli hisoblanadi.

Turkiy tildagi [r] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda, fors tilidagi [r] tovushi orqali ifodalanadi, soʻz boshi [r] bilan boshlangan soʻzlar fors tilida kuzatilmadi:

yurt – يورت [yurt] – o‘tov

car – جار [jār] - jar

tor – تور [tur] – to‘r

18. Turk tilidagi [y] tovushi jarangli, yumshoq undosh tovushdir.

Fors tilidagi [y] tovushi yumshoq, jarangli, tanglay tovushidir. [y] tovushini hosil qiluvchi nutq organlari til va tanglaydir. Bu tovushni hosil qilishda lablar cho‘ziq, yumshoq tanglay ko‘tarilgan, tovush paychalari tebranish holatida bo‘ladi.

Turkiy tildan [y] ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda, fors tilidagi [y] bilan ifodalanadi:

yil – ئىل [yil] - yil

yahni – يىخنى [yaxni] – sho‘rva

yelken – يلكن [yalkan] – yelkan

yaka – يقه [yaye] – yoqa

19. Turk tilidagi [l] tovushi jarangli, yumshoq tovushdir.

Fors tilidagi [l] tovushi yumshoq, jarangli, milk undoshidir. Bu unboshni talaffuz qilishda til uchi yuqori milkka jipslashadi. Shu tariqa og‘izda to‘siq hosil bo‘ladi va bu to‘siq havoning chiqishiga qarshilik qilmaydi. [l] tovushining hosil bo‘lishi tovush paychalarining tebranishi bilan birga kechadi.

Turkiy tildan [l] ishtirokidagi so‘zlar fors tiliga o‘zlashganda, fors tilidagi [l] bilan ifodalanadi:

tulumba – تلمبه [tolombe] – nasos

şişlik – ششلیک [šėšlik] – shashlik, kabob

katil – قاتل [yātel] – qotil

20. Turk tilidagi [ğ] undosh fonemasi jarangli tovush hisoblanadi.

Fors tilidagi [ğ] tovushi jarangli, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovushidir.

Turkiy tildan [ğ] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda, fors tilidagi [g], [γ] bilan ifodalanadi.

[ğ] ni [g] ga oʻzgarishi:

düğme – دگمه [dogme] – tugma

[ğ] ni [γ] ga oʻzgarishi:

boğça – بغيچه [boyçe] – tugun

21. Turk tilidagi [c] tovushi qorishiq, jarangli tovushdir. Bu tovush fors tiliga [j] tovushiga toʻgʻri keladi.

Fors tilida mazkur tovush oʻrniga [j] tovushi qoʻllaniladi. Fors tilidagi [j] tovushi yumshoq, jarangli, portlovchi, sirgʻaluvchi tovushdir. [j] tovushini talaffuz qilishda tovush paychalari jarang hosil qilish holatida boʻladi. Odatda ikki unli oʻrtasida toʻliq jarangli, lekin soʻz boshida, pauzadan oldin uning boshlanish qismi jarangsizlashadi.

Turkiy tildan [c] ishtirokidagi soʻzlar fors tiliga oʻzlashganda, fors tilidagi [j] bilan ifodalanadi:

ceyran – جيران [jayrān] - jayron

ocak – اجاق [ojāγ] – oʻchoq

car – جار [jār] - jar

## II bob boʻyicha xulosalar

Turkiy tildan fors tiliga oʻzlashgan soʻzlarning fonetik qismiga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fors tili dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri hisoblanadi. Bu tilning boyishida fors tilida ijod qilgan turkiy shoirlardan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Shahriyor va boshqalarning xizmatlari beqiyos boʻlgan. Shuningdek, Eronda koʻp asrlar davomida hukmronlik qilgan turkiy sulolalar ham oʻz hissalarini qoʻshganlar.

Fors tiliga o‘zlashgan turkiy so‘zlarning fonetik tahlili o‘ta muhim tilshunoslik mavzusi bo‘lib, bu XVI asrlarga kelib fors tilida yuz bergan muhim hodisa, klassik fors tilidagi fonemalar tizimining shakllanishida turkiy tilining ta‘sirini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida hozirgi zamon fors tili fonetika tizimini hozirgi turk tili fonetik tizimi bilan qiyosiy o‘rganildi. Chunki hozirgi turk tili o‘g‘uz lahjasiga asoslangan bo‘lib, fors tiliga o‘zlashgan turkiy so‘zlar aynan mana shu lahjaga mansub.

### III BOB. TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING MORFOLOGIK TAHLILI

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar boshqa arabiy va yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar singari fors tili lug‘at tarkibidan muqim o‘rin olib bo‘lgan. Har qanday tilda o‘zlashgan begona til unsurlari, yangi til muhitida uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan kechiradi. Bu moslashuv jarayoni til sistemasining turli tarkibiy bosqichlarida amalga oshadi. Odatda begona so‘z yangi til muhitida fonetik, grafik, ma‘noviy, grammatik va uslubiy bosqichlarda moslashuv jarayonini boshdan kechiradi<sup>67</sup>.

Turkiy o‘zlashmalar ham mana shunday moslashuv jarayonini o‘tkazgan. Bu moslashuv jarayonlari uzoq muddatli jarayon bo‘lib, to yangi so‘z yoki birikma til sistemasining hamma bosqichlarida o‘z o‘rnini topmaguncha o‘zlashtiruvchi til sistemasiga singib ketmaydi.

Turkiy o‘zlashmalar fors tili lug‘at tarkibidan joy olgach, grammatik moslashuvning bir bosqichi bo‘lgan morfologik moslashuv jarayonini boshidan kechiradi.

Morfologik moslashuvda turkiy tillardan o‘zlashgan so‘z turkumi, fors tilida shu so‘z turkumiga oid grammatik kategoriyalarga moslashadi. Bunda agar o‘zlashma ot so‘z turkumiga oid bo‘lsa ko‘plik kategoriyasi, otdan so‘z yasash usullariga, sifat so‘z turkumiga oid bo‘lsa sifatlarning qiyosiy va orttirma darajasiga va so‘z yasash moddellariga, fe‘lga tegishli bo‘lsa fe‘lning so‘z yasash, zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga moslashadi<sup>68</sup>.

To‘plangan misollar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar quyidagi so‘z turkumlariga bo‘linadi.

**3.1 Ot.** اسم- *esm.* Ot so‘z turkumi morfologiyaning eng muhim bo‘lagi hisoblanadi va u predmetning nomini anglatadi. Hozirgi fors tilida ot so‘z turkumiga

---

<sup>67</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2009.-B. 61.

<sup>68</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi.-Toshkent, 2009.-B. 63.

oid turkiy tillardan kirib kelgan o‘zlashmalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Masalan:

قېچى	<i>γeyčī</i>	qaychi
چاقو	<i>čāyu</i>	pichoq
دشک	<i>došak</i>	toshak
قابلمه	<i>γāblame</i>	kastryulka
اطاق	<i>otāy</i>	xona

Fors tilida ham otlar ikki turga bo‘linadi, turdosh va atoqli otlar. Hozirgi fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarni biz har ikkalasida ham uchratishimiz mumkin.

• Turdosh otlar اسم عام Hozirgi fors tilidagi juda ham ko‘p turkiy o‘zlashmalar turdosh otlarga mansub. Masalan:

تسمه	<i>tasme</i>	tasma
بغچه	<i>boγče</i>	tugun, buqcha
تلنبه	<i>tolombe</i>	nasos
الک	<i>alak</i>	elak
گمرک	<i>gomrok</i>	bojxona

عمو بچه اش را بر داشت و گفت: "من رفتم، شاید به کله ام زد و دو باره برگشتم"<sup>69</sup>.

*Amu bāγčeašrā bar dāšt va goft: "man raftam, šāyad be kalleam zad va do bāre bar gaštam"*.

Tog‘a tugunini ko‘tardi va dedi: ”Men ketdim, ehtimol birdan miyamga urdimi, yana uyga qaytdim”.

او هم پیاده شد، تلمبه را آورد<sup>70</sup>.

*U ham piyode šod, tolomberā āvard.*

<sup>69</sup> Хазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 168.

جلال آل احمد سنار تهران ۱۰۴/۱۳۷۹<sup>70</sup>

U ham tushib nasosni olib keldi.

Yuqoridagi jummalarda بقچه va تلمبه soʻzlari turkiy tillardan oʻzlashgan turdosh otlardir.

• Atoqli otlar اسم خاص. Hozirgi fors tilida bir qator turkiy atoqli otlarni ham uchratish mumkin. Ulardan biri erkak va ayollarning ismlari:

بهادر	<i>Bahāder</i>
ارسلان	<i>Arslān</i>
افشار	<i>Afšār</i>
تمور	<i>Temur</i>
سنجر	<i>Sanjar</i>
جيران	<i>Jeyrān</i>
آيدين	<i>Āydin</i>
قليچ	<i>Qelič</i>

Turli geografik joylar nomlari.

دریای خزر	<i>Daryā-ye xazar</i>	Kaspiy dengiz (Eronning shimolida joylashgan yirik suz xavzasi)
آق داغ	<i>Āydāy</i>	Oq tog‘ (Ordibehesht oʻstonida joylashgan 4867 gektarli hudud)
آق قاپا	<i>Āy yāyā</i>	Oq qoya (Eron shimolidagi g‘orlardan biri)
تشلاق	<i>Tashlāy</i>	Toshloq (Kurdistondagi daryo)
قزل اوزن	<i>yez el ozan</i>	Qizil oʻzan (Zendjondagi daryo)

Avval aytib o'tganimizdek, hozirgi fors tilidagi ot so'z turkumiga oid turkiy o'zlashmalar morfologik moslashuvda o'zlariga ko'plik qo'shimchalarini qabul qilish mumkin. Odatda ular ha-hā universal ko'plik qo'shimchasini qabul qiladi. Masalan:

آره، يکيشون بي معرفتي کرده بود منم دو تا از قرقی هاش را قر زدم<sup>71</sup>.

*Āre, yekišun bi marifati karde bud, manam du tā yeryihāšrā yor zadam.*

Ha, ulardan biri tarbiyasizlik qilgan edi, men ham qirg'iylarining ikkitasini o'g'irlab oldim.

Ushbu jumladagi قرقی so'zi ha ko'plik qo'shimchasini qabul qilgan.

قرقی+ ها ← قرقی ها

Shuningdek, turkiy tillardan o'zlashgan otlar آن ān ko'plik qo'shimchasini ham qabul qilishi mumkin:

آقایان کنار بروید که من نمی خوا هم مرتکب گناه بشوم، بنده مبتلا به آنفلوآنزا شده ام<sup>72</sup>.

*Āyāyān kenār beravid ke man nemixāham mortakeb-e gonāh bešavam, bande mobtalā be ānfoluānzā šodeam.*

Og'alar tezroq chetga o'ting, men gunohkor bo'lib qolishni xohlamayman men grippga chalinganman.

آقا + آن ← آقایان

Bundan tashqari arabcha ko'plik kategoriyasi orqali ham turkiy o'zlashmalarning ko'plik shakli yasaladi. Masalan:

آت at ko'plik qo'shimchasi

ايل + ات ← ايلات

<sup>71</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 263.

<sup>72</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 203.

Ba`zi bir turkiy o`zlashmalarning arabcha siniq ko`plik formasi ham mavjud. Ammo bu kabi ko`plik yasalishi nihoyatda kam uchraydi<sup>73</sup>.

خان	خوانین	<i>xavānin</i>	xonlar
ترک	اتراک	<i>atrāk</i>	turklar
ترکمان	تراکمه	<i>tarākame</i>	turkmanlar
دکان	دکاکین	<i>dokākin</i>	do`konlar

آخرین خوانین بکش، ولی خان کیانی فرزند عبدالله خان و محمد خان کیانی فرزند شکرالله خان بودند که به ترتیب در سال های ۱۳۵۳ و ۱۳۵۱ ش. در گذشته اند.<sup>74</sup>

*āxerin xavānin-e Bakaš, Valixān Kayāniy farzand-e Abdullaxān va Moxamadxān Kayāniy farzand-e šokrollāxān budand ke be tartib dar sālhā-ye 1323 va 1351 š. dar gozāšteand.*

Bakashning so`nggi xonlari Abdullaxonning o`g`li Valixon Kayoniy va Shokrulloxonning o`g`li Muhammadxon Kayoniylar oldinma-кетин 1323 va 1351 h.sh yili vafot etganlar.

Shuningdek, turkiy o`zlashmalar fors tiliga kirib kelgach, yana bir morfologik jarayonda, ya`ni yangi so`z yasalishida ham ishtirok etishi mumkin. Fors tilidagi turkiy o`zlashma so`zlar bemalol so`z yasovchi affikslarni qabul qilib yangi otlar yasaydi:

ninachi	<i>sanjāyak</i>	سنجاق + ک ← سنجاقک
uycha	<i>otāqak</i>	اتاق + ک ← اتاقک

ماشین به اندازه مختلف، یک نفره، دو نفره یا دسته جمعی ساخته می شد و کوچکترین نمونه اش به اندازه یک اتاقک تلفن بود<sup>75</sup>.

<sup>73</sup> Л.И. Жирков Персидский язык. Элементарная грамматика., М. 2009.50-стр.

<sup>74</sup> [www.amarr.blogfa.com/post-32.aspx](http://www.amarr.blogfa.com/post-32.aspx)

<sup>75</sup> Ҳазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 175.

*Māšin be andoze-ye moxtalef, yek nafare, do nafare yā daste-ye jam'i sāxte mišod va kučektarin namuneyaš be andāze-ye yek otāyak-e telefon bud.*

Mashina turli xil, bir kishilik, ikki kishilik yoki ko'pchilik o'lchamda qurilardi va eng kichik namunasi bir telefon uyhasi o'lchamida edi.

این سنجاکک در زیر آب رشد می کند و می تواند تا سه سال در زیر آب بماند<sup>76</sup>.

*In sanjāyak dar zir-e āb rošd mikonad va mitavānad tā se sāl dar zir-e āb bemānad.*

Bu ninachi suv ostida voyaga yetadi va uch yilgacha suv ostida qola oladi.

Turkiy o'zlashmalar yarimaffikslarni ham qabul qilib, yangi otlar yasashi mumkin:

eshkak eshish	<i>yāyeyrāni</i>	قایق + رانی ← قایقرانی
klub	<i>bāšgāh</i>	باش + گاه ← باشگاه
lager	<i>ordugāh</i>	اردو + گاه ← اردوگاه
tugmasoz	<i>dogmesāz</i>	دگمه + ساز ← دگمه ساز

دو باشگاه استقلال و پرسپولیس تا امروز فرصت دارند اسامی خود را در اختیار فدراسیون قرار

دهند.<sup>77</sup>

*Do bāšgāh Esteylol va persepolis tā emruz forsāt dārand asāmi-ye xodrā dar extiyār-e federāsiyun yarār dehand.*

Ikki klub Istiqlol va Persopolis federatsiyaga o'z ro'yxatni topshirish uchun bugungacha vaqtlari bor.

Shuningdek, turkiy o'zlashmalar kompozitsiya usulida ham otlar yasalishida ishtirok etadi:

<sup>76</sup> www.fa.m.wikipedia.org.

<sup>77</sup> همشهری №163. 2011.

uchrashuv joyi	<i>pātuγ</i>	پا + توغ ← پاتوغ
qushxona	<i>yušxāne</i>	قوش + خانه ← قوشخانه
artilleriya	<i>tupxāne</i>	توب + خانه ← توبخانه
choparxona <i>čāpārxāne</i>	چاپار + خانه ← چاپارخانه	

صاحبخانه ها نه جنجالی دارند و نه بچه ای که نصف شب اهل خانه را از خواب بیدار کند و نه رفت و آمد زیادی که خانه را بدل به چاپار خانه و یا کاروانسرا بسازد<sup>78</sup>

*Sāhebxānehā na janjāli dārand va na bačei ke nesf-e šab ahl-e xānerā az xāb bidār konad va na raft-o āmad-e ziyādi ke xāne rā badal be čāpārxāne va yo kārvānsarā besāzad.*

Uy egalari na shovqin solishardi, na bolalari yarim kechasi uydagilarni uygʻotib va na koʻplab bordi-keldilardan uyni choparxonaga yoki karvonsaroyga aylantirib yuborishardi.

Ushbu jumladagi turkiy چاپار soʻziga خانه soʻzi qoʻshilmoqda va yangi soʻz yasalmogda.

### 3.2 Sifat صفت *sefat*

Belgini bildiradigan soʻz turkumi sifat deyiladi. Hozirgi fors tilida sifat soʻz turkumiga oid turkiy oʻzlashmalarning miqdori biroz cheklangan. Fors tilidagi turkiy oʻzlashmalarni ham asliy, ham nisbiy sifatlarda uchratish mumkin.

#### • Asliy sifatlار صفت سماعی *sefat-e semāi*

قزل	<i>yezal</i>	qizil
چاق	<i>čāγ</i>	semiz
کوچک	<i>kuček</i>	kichik
قرا، قره	<i>yarā, yare</i>	qora
دیلاق	<i>deylāγ</i>	xunuk, koʻrimsiz
آق	<i>āγ</i>	oq

جلال آل احمد . ستار. تهران ۱۳۷۹ / ۱۱۲ / 78

ننه حسن همسایه شان اسم او را "خانم سوگلی" گذاشته بود<sup>79</sup>.

*Nane-ye Hasan hamsāyeshān esm-e urā "xānom-e sogoli" gozāšte bud.*

Qo'shniligi Hasanning onasi uning ismini "sevimli xonim" deb qo'yib olgan edi.

دائی کوچک گفت: راستشو بگو، این پیرسگ کجا رفته؟<sup>80</sup>

*dāyi-ye kuček goft: rāstašu begu, in pirsag kojā rafte?*

Kichik tog'a dedi: to'g'risini ayt, bu qari it qayerga ketgan?

Ushbu jummalardagi سوگلی va کوچک so'zlari turkiy tillardan kirgan hozirgi fors tilidagi sifatlardir.

Daraja ko'rsatkichi sifatlarga xos bo'lib, bu sifadni boshqa so'z turkumlaridan ajratib turuvchi asosiy belgidir. Turkiy tillardan o'zlashgan sifatlarni ham morfologik moslashuvda ishtirok etadi, ular ham darajalanadi. Masalan:

صغرى کوچکترین امیدى به خود راه نمى داد<sup>81</sup>

*Soyrā kučektarin omidi be xod rāh namidād.*

Sog'ro kichkinagina umidi ham yo'q edi.

خاللا دوستم از من ديلاقتر است.<sup>82</sup>

*Hālā dustam az man delāqtar ast.*

Hozir do'stim mendan xunukroqdir.

Ushbu jummalardagi ديلاقتر va کوچکترین so'zlar تر va ترین qo'shimchalarini qo'shib qiyosiy va ortirma nisbat sifatlarini yasamoqda.

<sup>79</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 93.

<sup>80</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 161.

<sup>81</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 55.

<sup>82</sup> www.pcrsi.com/2015/

## •Nisbiy sifatlar صفت نسبی *sefat-e nesbi*

چېق + ی ← چېقى

قاچاق + ی ← قاچاقى

یک مرد چېقى جواب داد: واسه من اهل محل نیست<sup>83</sup>.

*yek mard-e čopoyi javāb dād: vāsse man ahl-e mahal nist.*

Bir trubkali kishi javob berdi: To`g`risini aytsam men bu yerlik emasman.

يکى از دزدان دید که شیئی قاچاقى در زیر زمین پنهان می شد<sup>84</sup>.

*yeki az dozdān did ke şey-ye yāčāyi dar zir-e zamin penhān mišod.*

O`g`rilardan biri yer ostida yashiringan kantrobanda narsalarni ko`rib qoldi.

Ushbu jumalardagi ot so`z turkumiga mansub bo`lgan چېق va قاچاق so`zlari ی yāy-nesbat ni qabul qilib nisbiy sifatlar yasamoqda.

### 3.3 Son عدد *adad*

Son- sanoqni va tarkibni bildiradigan so`z turkumidir. Odatda ko`pgina tillarda son so`z turkumi turli xil o`zlashmalardan xoli bo`lgani holda, sanoqni ifodalash uchun tilning asl fondiga oid so`zlar ishlatiladi. Fors tili ham bundan mustasno emas. Fors tilida son so`z turkumida deyarli turkiy o`zlashmalarni uchratmaymiz. Faqat ba`zi so`zlargina kirib qolgan, ammo ular ham iste`moldan chiqib ketgan.

يوزباشى

*yuzbāshi*

yuzboshi

تومان

*tumān*

tuman, o`n ming

<sup>83</sup> Ҳазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 70.

<sup>84</sup> Ҳазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 118.

Bu soʻzlardagi يوز va تومان soʻzlari uzoq tarixda juda ham qisqa doirada ishlatilgan boʻlib, bunday turkiy sonlar faqatgina tarixiy asarlarda saqlanib qolgan. Masalan, تومان *tumān* soʻzi haqida Dehxudoning “Lugʻatnoma”sida yozilishicha, aslida son boʻlib 10000 sanogʻni bildirgan. Bundan tashqari bu soʻz 10000 kishilik qoʻshinni nomlashda ishlatilgan, yaʼni 10000 kishilik qoʻshin تومان *tumān* deyilgan va bu qoʻshinning rahbari امير تومان *amirtumān* deb atalgan. Shuningdek, mana shu qoʻshinni yetkazib beruvchi hudud ham تومان *tumān* deb atalgan<sup>85</sup>.

Hozirga kelib تومان *tumān* soʻzining bu maʼnosi deyarli ishlatilmaydi, uni faqat tarixiy yozma manbalarda uchratishimiz mumkin. Bu soʻzning yana bir maʼnosi bu pul birligining ifodalashidir. Hozirda Eronda 10 riyolni تومان *tumān* deb atashadi. Bu haqida Dehxudoning “Lugʻatnoma” sida quyidagicha yozilgan: “Hozirgi riyol oldingi “qiron”ning muodilidir va oldingi “qiron” ming dinorga teng boʻlgan hozirda muomiladagi 10 riyol sobiq “dino”r evaziga تومان *tumān* deb atashadi”<sup>86</sup>.

### 3.4. Olmosh ضمير *zamir*

Ilmiy tadqiqot ishi mobaynida manbalarda turkiy tillarga mansub olmoshlar uchratilmadi.

### 3.5. Ravish قيد *qeyd*

Ish-harakat yoki holatning belgisini bildiradigan soʻz turkumlari ravish deyiladi. Ilmiy tadqiqot ishida ravish soʻz turkumiga oid bir necha turkiy oʻzlashmalarni uchratdik.

دنچ	<i>denj</i>	tinch
شلوغ	<i>šoluy</i>	tiqilinch
یوآش	<i>yavāš</i>	sekin
قاق	<i>qāy</i>	quruq
یوآش یوآش	<i>yavāš- yavāš</i>	asta-sekin
یالغوز	<i>yālyuz</i>	yolgʻiz

<sup>85</sup> علی اکبر دهخدا، لغتنامه، تهران، ۱۳۱۹/۶۲۷۴

<sup>86</sup> علی اکبر دهخدا، لغتنامه، تهران، ۱۳۱۹/۶۲۷۴

دستم را زدم توی حوض که ماهی ها در رفتند و پدرم گفت:

- کره خر! پواشتر.<sup>87</sup>

*dastamrā zadan tuye houz ke māhi hā dar rafteand va pedaram goft:*

*Kore xar! Yavāštar.*

Qo‘limni hovuz ichiga tiqdim, baliqlar qochishardi va otam dedi: Eshak sekinroq.

Ushbu jumlada يواش so‘zi turkiy tillardan kirgan ravish hisoblanadi.

### 3.6. Fe‘l فعل *fel*

Ish harakat va holatni bildiradigan so‘z turkumini fe‘l deyiladi. Turkiy tillardan kirgan o‘zlashmalarni biz fe‘llarda ham uchratishimiz mumkin. Ma‘lumki fors tilida fe‘llar tuzilishiga ko‘ra sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llarga ajratiladi. Turkiy o‘zlashmalar ham boshqa arabiy va yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar singari sodda va murakkab fe‘llar yasalishida qatnashadi.

**Sodda fe‘llar.** Ilmiy tadqiqot ishi mobaynida turkiy o‘zlashmalardan yasalgan sodda fe‘llar kam uchratildi.

قايپدن	<i>yāpidan</i>	tutib olmoq
كوچپدن	<i>kuchidan</i>	ko‘chmoq
چاپپدن	<i>čāpidan</i>	o‘g‘irlamoq
توپپدن	<i>tupidan</i>	do‘q qilmoq

عشاير زاگرس به مناطق گرم خوزستان کوچيدند.<sup>88</sup>

*ašāyer-e zāgros be manātey-e garm-e Xuzestān kučidand.*

Zagros qabilalari Xuzestonning issiq mintaqalariga ko‘chib o‘tdilar.

<sup>87</sup> Хазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 136.

<sup>88</sup> [www.magiran.com/npview.asp](http://www.magiran.com/npview.asp)

**Qo'shma fe'llar.** Ot yoki boshqa so'z turkumlari va ko'makchi fe'llar yordamida yasalgan fe'llar qo'shma fe'llar deyiladi. Qo'shma fe'llar ikki qismdan ot va fe'l qismidan tashkil topganini inobatga olsak, bu turdagi fe'llarda ham turli o'zlashmalar, xususan turkiy o'zlashmalar ham ishtirok etishi mumkin. Umuman olganda, qo'shma fe'llar fors tili fe'llarining asosiy qismini tashkil qiladi, turkiy o'zlashmalarni ham sodda fe'llarga nisbatan qo'shma fe'llarda ko'proq uchratish mumkin. Bunda hozirgi fors tili lug'at tarkibidan o'rin olgan ot, sifat, ravish va boshqa so'z turkumlariga oid turkiy so'zlar sodda fe'llar bilan birikib qo'shma fe'llar yasaydi.

کشیك دادن	<i>keshik dādan</i>	qo'riqlamoq
سراغ رفتن	<i>sorāy raftan</i>	yo'qlab bormoq
چاق کردن	<i>čāy kardan</i>	semirtirmoq, boqmoq
بوق زدن	<i>buy zadan</i>	signal chalmoq
چمباتمه زدن	<i>čambātme zadan</i>	cho'kkalab o'tirmoq

بالاخره خسته شدم و رو زمین چمباتمه زدم<sup>89</sup>.

*Belāxare xaste šodam va ru zamin čambātme zadam.*

Oxiri charchadim va yerga cho'kkalab o'tirib oldim.

راننده دو سه بار دیگر بوق زد و وقتی کسی در را باز نکرد پیاده شد و پشت در رفت<sup>90</sup>.

*rānande do se bor digar buy zad va vayti kasi dar rā bāz nakard piyāde šod va pošt-e dar raft.*

Haydovchi yana ikki uch bor signal chaldi va darvozani hech kim ochavermagach, mashinadan tushib eshik ortiga bordi.

<sup>89</sup> Хазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 112.

<sup>90</sup> جلال آل احمد ستار تهران ۱۳۸۹/۱۱۵

Ushbu jumladagi چمباتمه va بوق kabi turkiy o‘zlashmalar زدن sodda fe‘li bilan birikib qo‘shma fe‘l yasashda ishtirok etmoqda.

### 3.7. Turkiy so‘z yasovchi qo‘shimchalar

Hozirgi fors tilida turkiy tillardan kirib kelgan hozirgacha amalda ko‘p qo‘llaniladigan affikslar ham mavjud.

چی – *či* suffiksi. Bu suffiks forsiy va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar bilan qo‘shilib yangi kasb-hunar ma’nosidagi so‘zlarni yasaydi. Bu suffiks fors tilida keng qo‘llaniladi.

آغای محمد اول ها شکارچی بود اما الان به شکار نمیروند<sup>91</sup>.

*Āyā-ye mohammad avvalhā šekārči bud ammā alān be šekār namiravad.*

Janob Muhammad avvallari ovchi edi, ammo hozir ovga bormaydi.

Ushbu jumladagi شکار-چی suffiksi forsiy so‘ziga qo‘shilib yangi so‘z yasamoqda:

شکار + چی ← شکارچی

Shuningdek, چی- suffiksi Yevropa tillaridan kirgan va arabiy so‘zlarga ham qo‘shilib, yangi so‘z yasashda xizmat qilishi mumkin.

شلاق در شکه چی بلند شد و راه افتادیم<sup>92</sup>.

*šallāy-e doroškeči boland šod va rāh oftādim.*

Aravakashning qamchisi ko‘tarildi va yo‘lga tushdik.

Ushbu jumladagi چی-suffiksi rus tilidan kirgan درشکه so‘ziga qo‘shilib yangi so‘z yasamoqda.

<sup>91</sup> [www.magiran.com/npvsk.aspx](http://www.magiran.com/npvsk.aspx)

<sup>92</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 30.

درشکه + چی ← درشکچی

شهباز بعد از کمی سکوت رو کرد به قهوه چی و گفت:

"دش اکبر، دو تا قند پهلو بیار"<sup>93</sup>

*šahbāz ba'd az kami sokut ru kard ba qahveči goft:*

*"dāš akbar do tā γand pahlu biyār"*

Shahboz biroz sukutdan so'ng qahvachiga qaradi va dedi:

"Akbar aka ikkita qand choy olib keling"

باز نظافتچی مرا بیدار کرد

- شما که نخور ده اید؟

- من نمی خورم.<sup>94</sup>

*bāz nezāfatči marā bidār kard.*

- *šomā ke naxordeid?*

Yana farrosh meni uyg'otdi.

- Siz yemadingizmi?

Ushbu jumalardagi arabiy قهوه va نظافت so'zlari o'zlariga چی so'z yasovchi qo'shimchasini qabul qilmoqda.

قهوه + چی ← قهوه چی

نظافت + چی ← نظافتچی

Bundan tashqari A.Quronbekovning "Fors tili leksikologiyasi" kitobida bir qancha turkiy affikslar va yarimaffikslar keltirilgan. Masalan:

<sup>93</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 106.

<sup>94</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 112.

-ulu suffiksi (-ule, -lu) kichraytirish, erkalash ma'nosida ishlatiladi. Masalan: *zangule*-qo'ng'iroqcha, *maškule*-kichik meshkob, *kučulu*-jajji bola; *Hamzelu*-Hamza avlodidan, *γara γoyunlu*-qora qo'yli urug'idan va shunga o'xshash so'zlar.

Turkiy tilidan *bāši*-boshliq, boshqaruvchi ma'nosidagi poluaffiks o'zlashgan bo'lib, hozirgi zamon fors tilida o'rta asrlarda kirib kelgan so'zlar ko'plab uchraydi.

*yuzbāši*-yuzboshi, *bāybānbāši*- bog'bonlar kattasi, *tajerbāši*-tojirlar boshlig'i, *hammālbāši*-hammollar kattasi va shunga o'xshash so'zlar, faqat o'tmish, adabiyotida saqlanib qolgan.

-*tāš* (*dāš*) yarimaffiksi bilan yasalgan so'zlar, jumladan: *xeyeltāš*-hammaslak, *xājetāš*-janob, *dādāš*-aka va shunga o'xshash so'zlar arxaik so'zlarga aylangan yoki ba'zi mahalliy lahjalarda saqlanib qolgan.

-*begi* yarimaffiksi ham yangi so'z yasamaydi, faqat tarixiy asarlarda, shuningdek, inson ismlarida uchraydi. Masalan: *-qal'abegi*-qal'aning boshlig'i; *Daryabegi*-admiral (shaxs nomi) va shunga o'xshash so'zlar<sup>95</sup>.

### III bob bo'yicha xulosalar

Ishimizning uchinchi bobiga bag'ishlangan o'zlashmalarning morfologik tahliliga xulosa yasab shuni aytishimiz mumkinki, turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarning asosiy qismi ot so'z turkumiga oid so'zlardir. Bundan tashqari boshqa sifat, fe'l, ravish so'z turkumida ham turkiy o'zlashmalar aniqlandi. Son so'z turkumida faqat 2 ta turkiy o'zlashma aniqlandi. Olmosh so'z turkumiga mansub turkiy o'zlashmalar uchramadi. Ularning fors tili lug'at tarkibidagi morfologik moslashuv jarayoni o'rganildi va bu hodisa jumlar tarkibida ko'rib chiqildi.

---

<sup>95</sup> A.Quronbekov .Fors tili leksikologiyasi. T., 2008.51-bet.

## IV BOB. TURKIY TILDAN FORS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING SEMANTIK TAHLILI

O‘zlashmalarning moslashuv jarayoni orasida semantik jihatdan moslashuvning ahamiyati katta va ancha qiziqarlidir. Umuman olganda, leksik birliklarning ma’nosi va undagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi semantika (semasiologiya) barcha zamonaviy tilshunoslik maktablarida o‘ta muhim bo‘limlardan hisoblanadi<sup>96</sup>. Zero, til avvalo muloqot va axborot almashinuvi qurolidir. Shuningdek, so‘zning semantik strukturasi, so‘zning leksikografik talqini, monosemiya, polisemiya kabi masalalar bilan chambarchas bog‘lanadigan bu muammo faqat semasiologiya uchun emas, balki tilning boshqa lingvistik bahslari (leksikologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya kabilar) uchun ham prinsipial ahamiyatga ega<sup>97</sup>.

Har bir tilning lug‘at tarkibidan joy olgan har qanday so‘z, xoh u o‘zlashma bo‘ladimi, xoh tilning asl lug‘at fondiga oid so‘z bo‘ladimi, birinchi navbatda u ma’nolar anglatishi bilan qadrliroqdir. Chunki so‘z ma’no – semasiz yoki tovushli (jarangli) belgisiz yuzaga chiqmaydi. O‘z tabiatiga ko‘ra farqlanuvchi bu ikki jihat ayni paytda muayyan unurning yaxlitligini, ajralmasligini tashkil etadi. Tovush ma’no–mazmunga xizmat qilishi bois ma’no so‘zning asosiy elementi hisoblanadi. So‘z ma’nosi voqelikning til sohiblari tomonidan aynan bir xil, o‘xshash yoki yaqin idrok qilinishiga asoslanadi, til egalarining bilish salohiyatiga muvofiq tuziladi. Inson shuurida aks etuvchi in’ikos, asosan, kishilarning o‘zaro muloqot jarayonida, ularning tilida ro‘yobga chiqadi. So‘z shakli esa so‘z ideal tomonning material timsoli hisoblanib, u tufayli ma’no (ideal tomon) suhbatdoshga tushunarli bo‘ladi. Demak, so‘zning material tomoni nafaqat ideal (ma’no) tomonini ifodalaydi va ro‘yobga chiqaradi, balki ideal tomonning kommunikativ, umumiy, tushunarli bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Ideal tomon material tomomsiz mavjud

---

<sup>96</sup> Гайсина Г.Р. Персидские заимствования в башкирском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2008. – С. 7.

<sup>97</sup> Қўчқортоев И. Ўзбек тили лексик семасиологияси ва унинг актуал вазибалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1982. – № 6. – Б. 27.

bo‘lolmasligi kabi, material tomon ham ideal tomonsiz yuzaga kelmaydi. So‘z yangilanibgina, yangi qiyofaga kiribgina qolmay, shuningdek, o‘z fonetik ko‘rinishi (shaklini) ni o‘zgartirmagan holda semantik o‘zgarishlar negizida qayta maydonga chiqishi mumkin<sup>98</sup>.

So‘z o‘zlashishi dastlab so‘z va uning ayrim leksik ma’nalari holatida yuz berib, semantik tuzilishi to‘la o‘zlashmaydi. Chunki tilga kirib kelgan dastlabki davrda o‘zlashmaning ma’nosi to‘la beriladigan va ifodalanadigan kontekstda hali shakllanmaydi. Zero, u xalqlarning o‘zaro madaniy munosabatiga bog‘liq holda, unga tobe munosabatda qabul qilingan narsa va predmetlarni ifoda etuvchi leksik ma’nosi orqaligina qabul qilingan bo‘ladi<sup>99</sup>.

Chet so‘z asta–sekin tilda ma’lum leksik birliklar bilan bog‘liq holda ishlatila boshlaydi. Nutqda muayyan qo‘llanish shakllarini oladi. Til egalari ona tillaridan unga mos ekvivalent topishga harakat qilishadi. Mabodo, shunday til birligi bo‘lsa, o‘zlashmaning ma’nosi yanada oydinlashadi va konkretlashadi. Uning tilda qo‘llanilish o‘rni belgilanib, ishlatilishi aktuallashadi. Nomlangan faktorlar chet so‘z ma’nosiga, u anglatuvchi tushuncha va tasavvurlarga ham ta’sir qiladi. Zero, chet so‘zning ma’nosi qabul qiluvchi tilning lug‘at tarkibi, taraqqiyot darajasiga qarab to‘la, qisman va hatto butunlay o‘zgarib ham o‘zlashishi mumkin<sup>100</sup>.

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish ancha qiziqarli va shu bilan birga unda biroz murakkab va nozik qirralari mavjud.

Birinchidan fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar uzoq muddatli vaqt mobaynida o‘zlashgan. Ilk turkiy elementlar islomdan keyingi davrning boshlariga to‘g‘ri kelsa, XIX asrga kelib ham ularning fors tiliga kirib kelishi davom etgan. Ana shu katta davr ularni ma’no jihatdan tadqiq etishda biroz qiyinchilik tug‘diradi.

Ikkinchidan turkiy tillardan o‘zlashmalar fors tilidagi boshqa arab yoki yevropa (fransuz, ingliz va rus) tillaridan kirgan o‘zlashmalar singari muayyan va

---

<sup>98</sup> Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Тошкент: Фан, 2007. – Б. 102.

<sup>99</sup> Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 271.

<sup>100</sup> Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 85-86.

aniq bir tildan o‘zlashmagan. Bunda bir qator turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan tillar nazarda tutiladi. Ammo, bu fors tiliga o‘zlashmalarning kirib kelishida barcha turkiy tillar ishtirok etgan degani emas. Hozirgi fors tili lug‘at tarkibidagi turkiy o‘zlashmalarning asosiy qismi ozarbayjon, turk va shu kabi boshqa o‘g‘uz tillaridan kirganligini ta’kidlash lozim. Ularning o‘zlashgan davri asosan XV asrdan buyog‘idir. Shuning uchun ko‘pgina adabiyotlarda “ozarbayjoncha so‘zlar” deb ham beriladi. Forsiy manbalarda esa واژه های آذربایجانی *vājehā-ye āzarbayjāni* “ozarbayjoncha so‘zlar” va واژه های ترکی – آذربایجانی *vājehā-ye torki-āzarbayjāni* “turkiy–ozarbayjoniy so‘zlar” deb beriladi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyamizning to‘rtinchi bobida turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantikasi tahlil etildi. Bunda asosan ma’no kengayishi, ma’no torayishi, yangi ma’no kasb etish va ma’no o‘zgarishsiz ko‘chishi kabi semantik xususiyatlar o‘rganildi.

#### **4.1. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik kengayishi**

Turkiy o‘zlashmalar orasida shunday so‘zlar borki, ular fors tiliga kirgach, ma’no jihatidan kengayadilar, ya’ni ularning fors tilida anglatadigan ma’nolari turkiy tillardagiga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. O‘zlashmalarning ma’no kengayishi – til egalarining tasavvurida ichki va tashqi o‘xshashlik, funksiyalardagi monandlik va shu singari qiyoslanish omillari ostida o‘zlashmalar anglatuvchi tushunchalarning hajmi va soni oshishi ortidan sodir bo‘ladi. Endilikda o‘zlashma so‘zlar bilan boshqa narsa, predmet, hodisalar va tushunchalar nomlana boshlanadi. Shu tariqa so‘zlarda, yani o‘zlashma so‘zlarda ma’no turkiy tillardagiga nisbatan kengaya boshlaydi. Masalan, قابلمه *γāblame* so‘zi turkiy tillarda ‘qoplash’, ma’nosini anglatga, fors tilida esa turkiy tildagi ma’nosidan tashqari ‘kostrulka’ ma’nosi ham bor. Bunday holatda, o‘zlashmada ma’no jihatdan kengayish sodir bo‘lmoqda. O‘zlashmalarning ma’nolarini kontekstda ko‘rib chiqilsa, ulardagi o‘zgarishlar haqida aniqroq va ishonchliroq xulosa

chiqarishimiz mumkin. Shuning uchun *yāblame* soʻzini quyidagi jumalalarda koʻrib chiqamiz:

شیرین با چشم های کشاد شده گفت: "مامان، بگم باور نمی کنی، شستن ظرف کثیف بدون قابلمه ۳۰۰ تومان، با قابلمه ۳۲۰ تومان توسط صاحب خود ظرف"<sup>101</sup>.

*Širin bā čašmhā-ye gošād šode goft: "Māmān begam bāvar namikoni, šostan-e zarf-e kasif bedun-e yāblame sisad tumān, bā yāblame sisad-o bist tumān, tavassot-e sāheb-e xod-e zarf"*.

Shirin koʻzlarini katta-katta ochgancha dedi: "Oyijon, aytsam ishonmaysiz, sirsiz iflos idishni yuvish 300 tuman, sirligi 320 tuman, shunda ham idishlarning egasining oʻzi yuvadi".

Ushbu gapda *yāblame* 'sirli' soʻzi oʻz maʼnosida kelmoqda.

هنگامی که در خدمت سربازی بودم و نوبت به انجام وظایف اختیاری رسید، من شستن ظروف و قابلمه ها را انتخاب کردم<sup>102</sup>

*Hengāmike dar xedmat-e sarbāzi budam va noubat be anjām va vazāyef-e extiyāri rasid, man šostan-e zarf va yāblamehārā entexāb kardam.*

Harbiy xizmatda boʻlganimda navbat ixtiyoriy ish va vazifalarga keldi, men idish va kostrulkalarni yuvishni tanladim.

Hikoyadan olingan mazkur gapda *yāblame* soʻzi ikkinchi maʼnoda, 'kostrulka' maʼnosida kelmoqda. Shuningdek, *otāy* soʻzi turkiy tillarda, xususan, ozarbayjon tilida 'xona' maʼnosiga ega boʻlsa, fors tilida esa uning maʼnolari koʻproq, bu soʻz 'xona', 'kabina', 'palata' maʼnolarini ham anglatadi, masalan:

بازرس روی تنها صندلی اتاق که رفیقم به او نشان داده بود نشست<sup>103</sup>.

*Bāzras ru-ye tanhā sandali-ye otāy ke rafiyam be u nešān dāde bud nešast*

Inspektor xonadagi doʻstim koʻrsatgan yagona stulga oʻtirdi.

<sup>101</sup> رفیع افتخار. همسایه های پایین. روزنامه شماره ۵۱۱۹ همشهری. ۲۰۰۸.

<sup>102</sup> هارولد کلمپ. داستانهای ماهانتا. تهران، ۱۳۷۶. ص. ۳۷.

<sup>103</sup> جلال ال احمد. ستار. - تهران: کوثر، ۱۳۷۹. ص. ۹۳.

Ushbu jumladagi اتاق –otāy so‘zi ‘xona’ ma’nosida kelmoqda.

اتاق بازارگانی یک سازمان غیر دولتی می باشد<sup>104</sup>.

*Otāy-e bāzārgāni yek sāzemān-e yeyr-doulati mibāšad.*

Savdo-sotiq palatasi bir nodavlat tashkilot hisoblanadi.

Mazkur jumlada اتاق –otāy so‘zi ‘palata’ ma’nosini anglatmoqda.

مینور اتاق خیلی کوچکی دارد، اما فضای کافی برای قرار دادن امکانات و همچنین سفری درون

شهری برای دو نفر وجود دارد<sup>105</sup>.

*Minor otāy-e xeyli kučeki dārad, ammā fazā-ye kāfi barāye yarār dādan-e emkānāt va hamčenin safari darun-e šahri barāye do nafar vojūd dārad.*

Minorning juda ham kichkina kabinasi bor, biroq qo‘shimcha buyumlarni joylashtirish, shuningdek, shahar ichida ikki kishilik sayr uchun yetarli joyga ega.

Mazkur jumlada اتاق –otāy so‘zi ‘kabina’ ma’nosini anglatmoqda. Ma’no kengaygan so‘zlarning aksari turkiy tillarda odatda bir ma’noni anglatadigan monosemantik so‘zlar hisoblanadi. Bundan tashqari ikki va undan ortiq ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarda ham ma’no kengayishi sodir bo‘lishi mumkin. *yeylāy* so‘zi ham ana shunday so‘zlardandir. Bu so‘z turkiy tillarda ‘yaylov’ va ‘yozgi salqin joy’ (hordiq joyi) ma’nolariga ega bo‘lsa, fors tilida esa yana ‘dala hovli’, ‘dacha’ ma’nosida ham kelishi mumkin, masalan:

در شمال غربی ایران، در ارتفاعات با لاتر از ۱۷۰۰ متر، در شمال شهرستان تالاش ییلاق

"شکردشت" وجود دارد<sup>106</sup>.

*Dar šemāl-e yarbi-ye Irān, dar ertefā’āt-e bālātar az 1700 metr, dar šemāl-e šahrestān-e Tālāš yeylāy-e “šokordašt” vojūd dārad.*

Eronning shimoli-g‘arbida 1700 metrdan ortiq balandlikda Tolosh shahri shimolida “Shokrdasht” yozgi salqin joy bor.

ما گفتیم: این افراد برای گردش پنجشنبه گذشته به ارتفاعات ییلاقی رفته بودند<sup>107</sup>.

<sup>104</sup> [www.eccim.com/site/index.aspx](http://www.eccim.com/site/index.aspx) (اتاق بازارگانی).

<sup>105</sup> <http://maxspeed.ir/modules.php?checked=rnd53> (نمایش موضوعات ارزان ترین خودرو ایران از راه رسید).

<sup>106</sup> <http://semorgh.com/culture/defawut.aspx> (ییلاق شکردشت).

*Mā goftim: “In afrād barāye gardesh panjšanbe-ye gozašte be ertefāat-e yeylāyi rafte budand”.*

Biz dedik: “Bu odamlar o‘tgan hafta aylanishga yaylov tepaliklariga borishgan edi”.

امسال در شهرستان تالاش دیگر ۱۰۰ تا خانه های بیلاقی ساخته میشود<sup>108</sup>.

*Emsāl dar šahrestān-e tālāš digar sad tā xānehā-ye yeylāyi sāxte mišavad*

Bu yil Tolosh shahrida yana yuzta dala hovli quriladi.

Yuqorida misol tariqasida berilgan turkiy o‘zlashmalarga ahamiyat bersak, ular anglatayotgan qo‘shimcha ma’nolari bilan avvalgi ma’nolari o‘rtasida yaqinlik va bog‘liqlikni ko‘ramiz.

#### **4.2. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning semantik torayishi**

Turkiy o‘zlashmalar fors tiliga o‘zlashgach ular anglatadigan ma’nolar kamayishi ham mumkin. Bunday semantik o‘zgarish ko‘p ma’noli-polisemantik turkiy so‘zlarga xosdir. Ular fors tiliga kirgach manba tiliga nisbatan kamroq ma’no anglata boshlaydilar. Odatda o‘zlashmalar kamdan-kam holatlardagina barcha ma’nolari bilan fors tiliga kirib kelishadi. Chunki o‘zlashmalarning leksik ma’nolari alohida-alohida, bir-biriga bo‘ysunmagan muayyan bir obyektiv sabablar bilan o‘zlashtirilishi ularning semantik tuzilishining to‘laligicha kirib kelishiga to‘sqinlik qiladi. U o‘zlashayotgan til uchun yangi narsa va hodisani bildiruvchi, moddiy va ma’naviy hayotni anglatishda kerak bo‘lgan tushuncha va tasavvurni nomlovchi, tilning kam joyini to‘ldiruvchi leksik birlik sifatida tezda qabul qilinadi<sup>109</sup>. Natijada o‘zlashtirayotgan til qabul qilayotgan so‘zning o‘zi uchun kerak bo‘ladigan ma’nosinigina qabul qiladi, so‘zning qolgan ma’nolariga ehtiyoj bo‘lmagani uchun qolgan ma’nolari o‘z-o‘zidan tushib qoladi.

<sup>107</sup> <http://guila.irib.ir/index.php%3foption%3.aspx>. (بیلاق)

<sup>108</sup> <http://semorgh.com/culture/defawut/yeylaqi.aspx>. (بیلاق شکر دشت)

<sup>109</sup> Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 90.

Turkiy o‘zlashmalarning ma’no torayishida asosan bitta ma’nosi o‘zlashishi ko‘proq sodir bo‘ladi. Bunday o‘zlashmalar turkiy tillarda ikki, uch va undan ortiq ma’nolarga ega bo‘lishsa ham, faqatgina bitta ma’nosi o‘zlashadi. Masalan قاچاق *yāčāy* so‘zi turkiy tillarda ikki ‘qochoq’ va ‘kontrabanda’ ma’nolariga ega, ammo fors tiliga faqatgina bitta ‘kontrabanda’ ma’nosigina o‘zlashgan. Fors tilida ‘qochoq’ so‘zini ifodalash uchun esa forsiy فراری *farāri* so‘zi mavjud. Ko‘rinib turibdiki, tilga o‘zlashmalar nafaqat o‘zlari, balki ma’nolarining hammasi ham qabul qilinavermaydi. قاچاق *yāčāy* so‘zini quyidagi jummalarda ko‘rib chiqamiz:

ما عادت نداشتيم از ياران خود بپرسيم که از چه راه فلان شيئي قاچاق وارد زندان شده است<sup>110</sup>.

*Mā ādat nadāštīm az yārān-e xod beporsim ke az če rāh-e felān šey-ye yāčāy vāred-e zendān šode ast.*

Biz do‘stlarimizdan o‘sha kontrabanda molini qaysi yo‘llar bilan olib kirgan deb so‘rashga odatlanmaganmiz.

ما چاره ای نداشتيم جز اينکه کتاب قاچاق کنيم و درموقع تفتيش آنها را پنهان نماييم<sup>111</sup>.

*Mā čāre-i nadāštīm joz in-ke ketāb yāčāy konim va dar mouye-e taftiš penhān namāyim.*

Biz kitobni bekitiqcha olib kirishga va taftish paytida ularni yashirishdan boshqa chora topa olmadik.

Ba’zan polisemantik xarakterdagi turkiy o‘zlashmalarning ma’no torayishida ularning ikkita ma’nosi ham o‘zlashishi mumkin. Masalan, توتون *tutun* so‘zi turkiy tillarda ‘tamaki’ (o‘simlik-*Nicotiana tabacum*), ‘tamaki’ (maxorka) va ‘tutun’ ma’nolariga ega. Fors tilida esa shulardan ikkita ma’nosi mavjud, uning ‘tutun’ ma’nosi o‘zlashmagan. Masalan:

<sup>110</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 122.

<sup>111</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 116.

توتون، گیاهی با برگهای پهن است که در اصل به آمریکای شمالی و جنوبی رشد می کرد<sup>112</sup>.

*Tutun giyāhi bā barghā-ye pahn ast ke dar asl be Āmrikā-ye šemāli va janubi rošd mikard.*

Tamaki aslida Shimoliy va Janubiy Amerikada o‘sadigan barglari keng bir giyohdir.

رختشرا در آورد، کیسه توتون و چبقتش را بر داشت رفت بالای پشت بام<sup>113</sup>.

*Raxtašrā dar āvard, kise-ye tutun va čoboğašrā bar dāšt raft bālā-ye pošt-e bām*

Kiyimlarini yechib tamaki xaltasi va trubkasini olib bolaxonaga chiqdi.

توتون *tutun* o‘zlashmasi yuqoridagi birinchi gapda o‘simlik ma’nosidagi ‘tamaki’ni anglatsa, ikkinchi gapda ‘tamaki’(maxorka) ma’nosini anglatmoqda.

آقا *āyā* so‘zi ham turkiy tillarda bir qancha ‘aka’, ‘janob’, ‘og‘a’, ‘xojayin’, ‘oila boshlig‘i’ kabi ma’nolarga ega. Hozirgi zamon fors tilida esa bu so‘z ikki ‘janob’ va ‘oila boshlig‘i’ (ota) ma’nolarigina o‘zlashgan, masalan:

کارم تمام شد و آقای مرزانی هنوز نیامده بود<sup>114</sup>.

*Kāram tamām šod va āyā-ye Marzāni hanuz nayāmade bud*

Ishim tugab bo‘ldi va janob Marzani esa hali ham kelmagan edi.

کاظم آقا که دست ها را آستین پالتو پنهان کرده نزدیک در ایستاده بود<sup>115</sup>.

*Kāzem āyā ke dasthārā āstin-e pāltu penhān karde nazdik-e dar istāde bud.*

Qo‘llarini paltosining yengiga berkitib olgan Kozim janoblari eshik yonida turar edi.

مادر بچه را میشوید، وسط پا، پشت، کمر، صورت. اگه ساکت نشی آقات میاد با زنجیرمی زنه ، ها<sup>116</sup>.

<sup>112</sup> [www.fa.m.wikipedia.org/wiki/tobacum](http://www.fa.m.wikipedia.org/wiki/tobacum) (توتون- ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)

<sup>113</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 95.

<sup>114</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 69.

<sup>115</sup> Ko‘rsatilgan asar. – B. 156

<sup>116</sup> اسماعیل فصیح. دل کور. – تهران: نشر البرز، ۱۳۷۵. ص. ۲۲۹.

*Dasthā-ye mādar baʿe-rā mišuyad, vasat-e pā, pošt, kamar, surat. Age sāket naši āyāt miyād bā zanjir mizane, hā*

Ona qoʻllari bilan bolaning oyoqlarining oʻrtasini, orqasini, belini, yuzini yuvardi: “Agar tinchlanmasang otang kelib zanjir bilan uradi, hali qarab turgin!”.

Shuningdek, تومان *tumān* soʻzi turkiy tillarda ‘oʻn ming’, ‘olomon’, ‘diviziya’, ‘maʼmuriy hudud birligi’ kabi maʼnolarni anglatadi. Hozirgi fors tilida esa bu soʻzning tarixiy ‘diviziya’ va ‘tuman’ (oʻn riyolga teng pul qiymati) kabi maʼnolari bor. Masalan:

- بی انصاف! مردیم از گرسنگی . پس برای کی نگهداشته بودی؟

- بیست تومان، یک قوتی<sup>117</sup> .

- *Biensāf! Mordim az gorosnegi. pas barāye ki negāh dāšte budi?*

- *Bist tuman, yek quti*

- *Insofsiz! Oʻldik-ku ochdan. Unda kim uchun olib qoʻyding?*

- *Yigirma tuman, bitta qutisi.*

Shuningdek, maʼnosini toraytirgan baʼzi bir oʻzlashmalar ham borki, ularning uch-toʻrttagacha maʼnolari fors tiliga oʻzlashgan boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlar odatda turkiy tillarda juda koʻp maʼnoni anglatuvchi soʻzlar hisoblanadi. Masalan, اجاق *ojāy* soʻzi ana shunday soʻzlardandir, bu soʻz turkiy tillarda juda koʻp maʼnoga ega: ‘oʻchoq’, ‘pech’, ‘kamin’, ‘markaz’, ‘oila’, ‘uy’ (masalan, “ota uyi”), ‘nasl-avlod’, ‘shajara’, ‘kon’. Fors tilida esa uning ‘ochoq’, ‘pech’ ‘kamin’, ‘nasl-avlod’ kabi maʼnolari oʻzlashgan. Masalan:

درو دیوار، سماور و قوری، سینی ظروف، اجاق گلی، حتی ماهی شور که نزدیک پنجره از میخ

آویخته بود، همه سیمای حیرت زده و پرسش آمیزی را به او نشان میداد<sup>118</sup>.

*Dar-o divār, samavār va yuri, sini-ye zoruf, ojāy geli, xattā māhi-ye šurke, nazdik-e panjare āvixte bud, hamme simā-ye heyrat zade va porsešomizrā be u nešān midād.*

<sup>117</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 46.

<sup>118</sup> Koʻrsatilgan asar. – B. 54.

Eshik va devor, samovar va choynak, loy o‘choq, patnis, hatto deraza yaqinidagi mixga osilib turgan sho‘r baliq – hammasi unga hayrat va savol aralash yuzini ko‘rsatar edi.

دودکش معصوم اجاق ها، چراغ های دریایی، پریان صحرائی این سرزمین جادواند از مادرت

بپرس!<sup>119</sup>

*Dudkaš-e masum-e ojāyha, čerāyḥā-ye daryāyi, pariyān-e sahrāyi-ye in sarzamin jāduand. Az mādarat bepors!*

Kaminlarning o‘chgan mo‘rilari, mayoqlar, bu yerning sahro parilari jodulangan. Onangdan so‘ra!

بیرزن گفت: برگرد سرخوابت، من غذا روی اجاق دارم<sup>120</sup>

*Pirzan goft: “Bar gard sar-e xāb, man yazā dāram ru-ye ojāy”.*

Qari kampir dedi: “Qaytib uxlayver, pechda ovqatim bor”.

چرا آنها هنوز هم صاحب فرزند نیستند، آیا اجاق کورند؟<sup>121</sup>.

*Čerā ānhā sāheb-e farzand nistand, āyā ojāy-e kurand?*

Nega ularning farzandlari yo‘q, befarzandmilar?

Yuqoridagi misollarda hozirgi fors tilidagi ma‘nosi toraygan turkiy o‘zlashmalarning bir, ikki va to‘rttagacha ma‘nolarining o‘zlashishini kuzatib chiqdik.

#### 4.3. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan yangi ma‘no kasb etgan so‘zlar

Turkiy o‘zlashmalar orasida shunday so‘zlar bor ki, ular fors tiliga kelib semantik mustaqillikka erishadilar. Ularning ma‘nolari va anglatuvchi tushunchalari o‘zlashgan tilda butunlay yangi leksik birliklar bilan bog‘lanib, turkiy tildagiga qaraganda mutlaqo o‘zga semantik variantlarni kashf etgan. Bunday turdagi o‘zlashmalarning nega ma‘nolarini butunlay o‘zgartirib yuborishlari sabablari noma‘lum va ularning miqdori ham ko‘p emas. Odatda turkiy o‘zlashmalarning yangi ma‘no kasb etishi bir ma‘noli so‘zlarda uchraydi.

<sup>119</sup> حکایت سرزمین من. تهران، ۱۳۷۶.

<sup>120</sup> پایولو کویلی. کیمیگر. مترجم دل آرا قهرمان. تهران: نشر و پژوهش فروزان، ۱۳۷۶. ص. ۲۷.

<sup>121</sup> <http://mahomehraz.mihanblog.com/post/8>. (ماه مهراز - اجاق کور)

Masalan, الاغ *olāy* so‘zi ana shunday o‘zlashmalardan. Hasan Amidning ta’kidlashicha, bu so‘zning turkiy tillardagi shakli “ulak” bo‘lib, ‘xabarchi’ ma’nosini anglatar ekan<sup>122</sup>. Fors tilida esa bu so‘z ‘eshak’ ma’nosiga o‘zgarib ketgan. Masalan:

روزی ملانصرالدین الاغش را برد توی بازار تا بفروشد<sup>123</sup>.

*Ruzi Mollā Nasriddin olāyašrā bord tu-ye bāzār tā beforušad.*

Bir kuni Mullo Nasriddin eshagini sotish uchun bozorga olib bordi.

Ma’nosini butunlay o‘zgartirgan turkiy o‘zlashmalarga بید *bid* ‘kuya’ so‘zini ham misol tariqasida berishimiz mumkin. Turkiy tillarda inson va hayvonlarning qonini so‘ruvchi parazit jonivor “bit” ni anglatuvchi bu so‘z fors tilida tamoman yangi ‘kuya’ ma’nosiga ega. Masalan:

در کل دو نوع بید وجود دارد که به پشم صدمه می زنند:

۱ بید لباس

۲ بید قالی<sup>124</sup>.

*Dar kol do nav-e bid vujud dārad ke be pašm sadame mizanand:*

*Bid-e lebās*

*Bid-e yāli.*

Yunglarga zarar yetkazuvchi kuyaning umumiy ikki turi mavjud:

- 1) kiyim kuyasi;
- 2) gilam kuyasi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, *bid* o‘zlashmasi hozirgi fors tilida tamoman yangi ma’no anglatadi, “bit” so‘zini ifodalash uchun esa o‘rta fors tilidagi *špiš* so‘ziga borib taqaluvchi شپیش *šepēš* so‘zi mavjud.

Hozirgi fors tilidagi yangi ma’no kasb etgan turkiy o‘zlashmalar orasida polisemantik xarakterli turkiy o‘zlashmalar ham bor. Bunday so‘zlar turkiy tillarda bir qancha ma’no anglatishsa ham ularning hech biri fors tiliga o‘zlashmagan va

<sup>122</sup> *Bu haqida qarang:* .۱۲۱. ص. ۱۳۸۹. راه رشد، عمید. تهران: راه رشد، ۱۳۸۹. ص. ۱۲۱.

<sup>123</sup> ملانصرالدین طنزها و لطیفه های خواندنی و شیرین. تهران، ۱۳۷۶. ص. ۲۲۹.

<sup>124</sup> (بید لباس- ویکی پدیا، دانشنامه آزاد) [http://fa.m.wikipedia.org/wiki/بید\\_لباس](http://fa.m.wikipedia.org/wiki/بید_لباس)

yangi, bu soʻzning turkiy tillardagi yoʻq maʼnolarini kasb etadilar. Masalan, سراغ *sorāy* soʻzi turkiy tillarda ‘soʻrov’ va ‘savol’ kabi maʼnolariga ega, ammo fors tilida bu maʼnolar mavjud emas. Aksincha, yangi ikki – ‘maʼlumot’ va ‘yoʻqlash’ maʼnolarida qoʻllaniladi, masalan:

دوستم! من از یک کافه سراغ دارم. بیا، امشب آنجا می رویم<sup>125</sup>.

*Dustam! Man az yek kāfe sorāy dāram. Biyā, emšab ānjā miravim.*

Doʻstim! Men bir kafeni bilaman. Kel, bugun kechasi u yerga boramiz.

در مدت یک سال و نیم که ماهرخ رفته بود بخدمتکاری یکبار نشد که آجی خانم به سراغ او برود  
یا احوالش را بپرسد<sup>126</sup>.

*Dar moddat-e yek sāl-o nim ke Māhroh rafte bud bexedmatkāri yekbār našod  
ke Ābjixānom be sorāy u beravad yā ahvālašrā beporsad.*

Mohroxning xizmatkorlikka ketganiga bir yarim yil boʻlgan boʻlsa ham, Objixonim uni biror marta yoʻqlab yoki ahvolini soʻrab bormadi.

چون از اول فکر کرده بود که فروش از این بالاتر نخواهد رفت و مرد جوان بزودی به سراغ  
گوسفنداناش خواهد رفت<sup>127</sup>.

*Čun az avval fekr karde bud ke foruš az in bālātar nahāhat raft va mard-e  
javān be sorāy-e gusfandānaš xāhad raft.*

Narhning bundan balandroqqa koʻtarilmasligini ilk oʻylaganidayoq yosh yigit qoʻylarini qidirib (yoʻqlab) ketadi.

Turkiy tildan fors tiliga yangi maʼno kasb etib oʻzlashgan bunday turkiy soʻzlarning miqdori ham koʻp emas. Agar ularning fors tilidagi yangi maʼnolariga eʼtibor bersak, ularning turkiy tillardagi maʼnolariga bogʻliqlik va yaqinligi bor.

<sup>125</sup> ( کافه ) [www.eccim.com/site.aspx](http://www.eccim.com/site.aspx)

<sup>126</sup> Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 94.

<sup>127</sup> پانولو كوئيلو: كيميائگر مترجم: دل آرا قهرمان:نشر و پژوهش فروزان.

#### 4.4. Ma'no o'zgarishsiz turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlar

Turkiy o'zlashmalar orasida o'z ma'nosini o'zgartirmay ko'chgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bunday o'zlashmalarga odatda turkiy tillarning o'zida bir ma'noga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Bular asosan terminologik leksika bo'lib, narsa va hodisani nomlash vazifasini bajaradilar. Masalan, قاشق *alak* 'elak', قاشق *qāšoy* 'qoshiq', بشقاب *bošyāb* 'likopcha', قرباغه *yurbaye* 'qurbaqa', تلمبه *tolombe* 'nasos', قيماق *yeymāy* 'qaymoq', قیچی *yeyči* 'qaychi', تپانچه *tapānče* 'to'pponcha', قازقان *qāzqān* 'qasqon', غاز *gāz* 'g'oz' kabi so'zlar. Masalan:

آن زن سلام کرد و گفت: "فال می گیرم. مهره مار داریم، الک، غلبیر، گردو..."<sup>128</sup>.

*Ān zan salām kard va goft: "Fāl migiram. Mohre-ye mār dārim, alak, yalbir, gerdu..."*

O'sha ayol salom berdi va dedi: "Fol ko'raman. O'qib qo'yamiz, elak, g'albir, yong'oq ...".

قاشق چایخوری را که به جای کلون بود از توی چفت درآورد، در را باز کرد و داخل شدند<sup>129</sup>.

*yāšoy-e čāyxuri rā ke be jā-ye kolun bud ke az tu-ye čeft dar āvard, dar rā bāz kard va dāxel šodand*

Surma zulfin o'rniga tiqib qo'yilgan choy qoshiqni halqadan sug'irib olib eshikni ochdi va ichkariga kirdi.

او هم پیاده شد، تلمبه را آوردند. چند تایی تلمبه زدند<sup>130</sup>.

*U ham piyāde šod, toloverā āvardand. Čandtāi toloverā zadand.*

U ham tushdi, nasosni olishdi va biroz balon damlashdi.

صادق هدایت. سه قطره خون. - تهران: امیر کبیر، ۱۳۶۶. ص. ۹۸. <sup>128</sup>

اسماعیل فصیح. دل کور. - تهران: نشر البرز، ۱۳۷۵. ص. ۲۴۳. <sup>129</sup>

جلال ال احمد. ستار. - تهران: کوثر، ۱۳۷۹. ص. ۱۰۴. <sup>130</sup>

Yuqorida *الك alak*, *قاشق yāšoy*, *تلمبه tolombe*, *بزک bazak* kabi soʻzlar misol tariqasida berildi. Bunday turdagi turkiy oʻzlashmalarning xarakterli tomonlaridan biri shuki, ular aniq bir funksional sferaga xosdir va semantik turgʻundirlar.

#### **IV bob boʻyicha xulosalar**

Turkiy tildan fors tiliga oʻzlashgan soʻzlarning semantik tahlili haqidagi bobimiz nihoyasida shuni aytish mumkinki, oʻzlashmalar fors tiliga oʻzlashgandan soʻng ularning maʼnolari maʼlum darajada oʻzgarishga yuz tutadi. Bunda maʼno torayishi, maʼno kengayishi, yangi maʼno kasb etishi holatlarini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, maʼnosini oʻzgartirmagan holda oʻzlashmalar ham oʻzlashgan. Ular miqdori koʻpchilikni tashkil etadi va asosan fors tilida ham turkiy tilda ham bir maʼnoni anglatuvchi soʻzlar hisoblanadi.

## XULOSA

Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarni o‘rganish ancha murakkab va o‘ta qiziqarlidir. Hozirgi fors tili lug‘at tarkibida turli tillardan kirgan o‘zlashmalar mavjud bo‘lib, turkiy o‘zlashmalar ana shu o‘zlashmalarning bir qismi hisoblanadi. Turkiy o‘zlashmalar fors tili leksikologiyasidagi dolzarb mavzularidandir, chunki ular boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar singari fors tili lug‘at tarkibining boyishiga xizmat qiladi. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik tahlili mavzusiga nihoya yasab quyidagi xulosalarga keldik:

1. Turkiy o‘zlashmalar miqdori, tilda qo‘llanishi, semantik tarkibi jihatidan fors tilidagi boshqa o‘zlashmalarga nisbatan ancha ustundir.

2. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar mavzusi mukammal o‘rganilmagan bo‘lsa ham, bu mavzuga qiziqish ancha avvalroq boshlangan. Xususan, A. Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida fors va turkiy tillarni o‘zaro chog‘ishtirib bir qancha turkiy so‘zlarni fors (sort) tilida mavjud ekanligini qayd etib o‘tgan. Shuningdek, bu asarda hozirda ham faol bo‘lgan turkiy so‘z yasovchi qo‘shimcha haqida ham ma’lumotlar berilgan. D. Rahimli ham fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarni tadqiq etgan. U “واژه های ترکی در زبان فارسی” kitobida fors tilining og‘zaki tilida va shevalarida uchraydigan ikki yuzdan ortiq turkiy leksik birliklarni keltirib, ularning fors va turkiy tillardagi ma’nolari, qaysi lahjalarda ishlatilishini yoritib bergan, shuningdek, o‘zlashmalarni struktur jihatdan ham tahlil qilgan. Eronda ham bu mavzuga qiziqish oxirgi vaqtlarda ko‘payib borishi bilan xarakterlidir. Turkiy o‘zlashmalar asosan fors tili izohli lug‘atlarida qisqagina yoritilgan, ba’zan ularning etimologiyasi ham berilgan. Bu an’ana zamonaviy fors leksikografiyasiga ancha avval yaratilgan tarixiy-izohli lug‘atlardan meros bo‘lib qolgan. Eronda turkiy o‘zlashmalarga bag‘ishlangan ishlardan biri M. Noyibiyning “واژگان ترکی در زبان پارسی” nomli asaridir. U bu kitobda mingdan ortiq so‘zlarni keltirib ularning ma’nolari va yasalishini yoritgan. Shuningdek, fors tili leksikologiyalarida ham turkiy o‘zlashmalar haqida qimmatli

fikrlar bildirilgan. Bunda L.S. Peysikov va A.Quronbekov ishlarini e'tirof etish mumkin.

3. Turkiy o'zlashmalar asosan islomdan keyingi davrlarda o'zlashgan.

4. Turkiy o'zlashmalar XVI asrdan boshlab fors tiliga kirib kelishi keskin oshdi. Ayniqsa, turkiy sulolalarning Erondagi hukmronliklarining ta'siri katta bo'ldi. Shuningdek, ikkitillik turkiylarning ham fors tiliga turkiy o'zlashmalarning kirib kelishida ishtiroklari bo'ldi.

5. Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan leksik birliklarda unli tovushlarning moslashuvi borasida:

5.1. Turkiy tilidagi [a] unli fonemasi fors tiliga [ā], [e] bo'lib o'zlashgan.

5.2. Turkiy tilidagi [e] unli fonemasi fors tiliga [a], [e] bo'lib o'zlashgan.

5.3. Turkiy tildagi [i] unli fonemasi fors tiliga [e], [i] va [o] bo'lib o'zlashgan.

5.4. Turkiy tildagi [ı] unli fonemasi fors tiliga [i], [e] bo'lib o'zlashgan.

5.5. Turkiy tildagi [o] unli fonemasi fors tiliga [o] bo'lib o'zlashgan.

5.6. Turkiy tildagi [u] unli fonemasi fors tiliga [u] bo'lib o'zlashgan.

5.7. Turkiy tildagi [ö] unli fonemasi fors tiliga [o], [u] bo'lib o'zlashgan.

5.8. Turkiy tildagi [ü] unli fonemasi fors tiliga [u], [e] bo'lib o'zlashgan.

6. Turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan leksik birliklarda undosh fonemalarning moslashuvi borasida:

6.1. Turkiy tildagi quyidagi undosh tovushlar fors tilida quyidagicha ifodalanadi: [p-p], [b-b], [t-t], [d-d], [k-k, γ], [g-g], [m-m], [n-n], [f-f], [v-v], [s-s], [z-z], [ş-š], [h-x], [ç-č], [j-ž], [r-r], [y-y], [l-l], [ğ-γ, g], [c-j].

7. Ish jarayonida turkiy tildan fors tiliga o'zlashgan so'zlarda diftong qatnashgan so'zlar kuzatilmadi.

8. Hozirgi davrda Eronda faoliyat ko'rsatayotgan "Farhangestān-e zabān va adabiyāt-e fārsi" akademiyasi fors tilini barcha o'zlashmalardan, jumladan, turkiy tillardan o'zlashgan lug'at birliklaridan tozalamoqda. Natijada ba'zi bir turkiy o'zlashmalar iste'moldan chiqib ketib, arxaik so'zlar qatoriga kirib qolmoqda. Ular faqatgina tarixiy asarlar va manbalarda uchrashi mumkin.

9. Turkiy tildan fors tiliga asosan ot so'z turkumiga oid so'zlar o'zlashgan.

10. Turkiy tildan fors tiliga o‘zlashgan so‘zlar semantik tahlil etildi, bunda quyidagi xulosalarga kelindi:

10.1. Ma’no kengayishi. Turkiy o‘zlashmalar orasida ma’nosi kengaygan so‘zlar ham mavjud. Bunday o‘zlashmalar fors tilida qo‘shimcha ma’no kasb qiladi. Hozirgi zamon fors tilidagi ma’nosi kengaygan turkiy o‘zlashmalarning qo‘shimcha va asosiy ma’nolari o‘rtasida yaqinlik va bog‘liqlik bor. Kamdan-kam hollarda asosiy ma’noga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalarni anglatib boshlaydilar.

10.2. Ma’no torayishi. Bunday semantik o‘zgarish tabiiyki, turkiy tillarning o‘zida ko‘p ma’noga ega bo‘lgan o‘zlashmalarda yuz beradi. Ular o‘zlari anglatayotgan ma’nolaridan fors tiliga bitta ma’nosi o‘zlashishi ko‘proq kuzatiladi, shuningdek, ularning ikki va undan ortiq ma’nolari o‘zlashishi ham mumkin.

10.3. Yangi ma’no kasb etishi. Shunday turkiy o‘zlashmalar borki, semantik mustaqillikka erishib butunlay yangi ma’no ifodalay boshlaydilar. Ular soni ko‘p emas va odatda avvalgi ma’nolariga yaqin ma’nolarni anglatadilar. Yangi ma’no kasb etgan o‘zlashmalar orasida bir ma’noli o‘zlashmalar ko‘proq, kamdan-kam holatlarda polisemantik turkiy so‘zlar o‘zlashganda ma’nolarini butunlay o‘zgartirib yuboradi.

10.4. Ma’no o‘zgarishsiz ko‘chgan o‘zlashmalar. Bunday so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu turdagi o‘zlashmalarga odatda turkiy tillarning o‘zida bir ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar kiradi. Bular asosan terminologik leksika bo‘lib, narsa va hodisani nomlash vazifasini bajaradi.

Ilmiy tadqiqot ishimizni yakunlar ekanmiz, olib borgan kichik tadqiqotimiz so‘ngida bu mavzu fors tilida dolzarb mavzulardan ekanligiga, hali ko‘plab izlanishlar, tadqiqotlar talab qilishiga, o‘z yechimini kutayotgan muammolar ko‘p ekanligiga guvoh bo‘ldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

#### I.A.Karimovning asarlari:

1. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 171 б.
2. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 432 б.

#### II. Asosiy adabiyotlar:

3. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари.– Тошкент: Фан, 1987. – 103 б.
4. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 312 б.
5. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. –Toshkent, 2009. – 108 b.
6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. –207 с.
7. دردانه رحيملى. واژه های ترکی در زبان فارسی. مترجم وحدى هلان. –تبريز، ۱۳۸۱. ص.۱۰۴.

#### III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

8. Гайсина Г.Р. Персидские заимствования в башкирском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2008. – 21 с.
9. Белгородский Н.А. Современная персидская лексика // Языковые проблемы по числительным, – Л., 1927. – С. 30–35.
10. Богаченко, Н.Г. История восточноазиатских заимствований в английском языке.(на материале Большого Оксфордского словаря): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Владивосток, 2003. – 25 с.
11. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.– Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
12. Дедюхина А.Г. Англоязычные заимствования в российской рекламе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. – 24 с.

13. Джаббаров Р. Д. Арабские заимствования во французском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Баку, 1984. – 21с.
14. Жирков Л.И. Персидский язык. Элементарная грамматика. – М.: УРСС, 2008. – 207 с.
15. Крысин.Л.П. Иноязычные слова в контексте современной общественной жизни // Русский в школе. – 1994. – №6. – С. 56–70.
16. Махамдалиев Х. Форс тилига ўзлашган туркий сўзлар оммавий коммуникациянинг бир кўриниши сифатида (тарихий луғатлар асосида) // Марказий Осиёда луғатчилик: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. – Тошкент, 2003. – Б. 54–60.
17. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. –Ташкент, 1994. –154 с.
18. Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн. Мукамал асарлар тўплами, Т.16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 3-36.
19. Николеску А. К. Заимствования романского происхождения в русском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2005. – 34 с.
20. Овчинникова И.К. К вопросу об удельном весе иноязычных заимствований в лексике современного литературного персидского языка//Индийская и иранская филология. – М.: Наука, 1971. – С. 43–60.
21. Персидско-русский словарь. В 2-х томах / под ред. Ю.А. Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. Т.1. – 800 с., Т.2. – 864 с.
22. Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2003. Т.1. –327 с., Т.2.–502 с.
23. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 599 б.
24. Реформатский А.А. Введение в языкознание. –М.: Наука, 1960. – 536 с.
25. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001. – 601 с.

26. Рубинчик Ю.А. Новая лексика персидского языка и пути ее пополнения// Иранское языкознание. – М., 1981. – С. 133–138.
27. Русско–азербайджанский словарь. – Баку, 1951. – 396 с.
28. Саидова Д. Доктор М. Мўъиннинг “Фарҳанг-е форси” луғатида туркий сўзлар семантикаси // Марказий Осиёда луғатчилик: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари. – Тошкент, 2003– Б. 78–82.
29. Содиков Қ.П. “Муҳокамату-л-луғатайн”ни ўқиб ўрганиш. – Тошкент. 2011. – 95 б
30. Тадинова Р.А. Тюркские лексические заимствования в системе северокавказских языков: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – М., 2006. – 50 с.
31. Тарасова М. В. Семантические изменения английских заимствований в русском и немецком языках в условиях глобализации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2009. – 30 с.
32. Хашимбеков Х. Проблема европеизмов в терминологии афганского дари // Индийская и иранская филология. – М., 1971. – С. 116–126.
33. Щербинин В.Г. Русско-турецкий словарь. М., 1989. – 679 с.
34. Эльдаров А. М. Итальянские заимствования в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1984. – 21 с.
35. Эфендиев И. И. Персидские лексические заимствования в системе нахско –дагестанских языков: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Махачкала, 2003. – 48 с.
36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
37. Қуронбеков А. Классик форс тили ҳамда ҳозирги форс, дарий ва тожик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили // Шарқ классик филологияси. – Тошкент: ТошДШИ, 2009. – Б. 11–18.
38. Ҳазратқулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 248 б.

39. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тошкент: Фан, 1993. – 374 б.
40. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 109 б.
41. Doerfer G. Azeri Turkish: Encyclopedia Iranica. T.3. – New York, 1988. – P. 245–248.
42. John Perry. The historical role of Turkish in relation to persian of Iran // Iran & the Caucasus, Vol. 5. 2001. – P. 193–200.
43. Lockhart L., Jackson P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge : CUP, 1986. – 950 p.
44. Roger M.Savory, Ahmad T., Karam Mustafо. Esmail I Safawiy: Encyclopedia Iranica. T.8. – New York, 1998. – P. 628–636.
45. Türkçe sözlük. Sekizinci baskı –Ankara, 1998. – 2523 s.
46. جلال آل احمد. در خدمت و خیانت روشنفکران. – تهران: فردوسی، ۱۳۷۶. ص. ۵۰۴.
47. سام خسروی فرد. میراث طبیعی ایران. – تهران: دفتر پژوهشهای فرهنگی، ۱۳۸۴. ص. ۱۶۰.
48. جلال ال احمد. ستار. – تهران: کوثر، ۱۳۷۹. ص. ۲۱۰.
49. علی اکبر دهخدا. لغتنامه دهخدا. – تهران، ۱۳۱۹.
50. اسماعیل فصیح. دل کور. – تهران: نشر البرز، ۱۳۷۵. ص. ۵۳۴.
51. پایولوکویلی. کیمیگر. مترجم دل آرا قهرمان. تهران: نشر و پژوهش فروزان، ۱۳۷۶.
52. صادق هدایت. سه قطره خون. – تهران: امیر کبیر، ۱۳۶۶.
53. حسن عمید. فرهنگ فارسی عمید. تهران: راه رشد، ۱۳۸۹. ص. ۱۰۸۸.
54. ملانصرالدین طنزها و لطیفه های خواندنی و شیرین. تهران، ۱۳۷۶. ص. ۲۲۹.
55. أحمد عربلو. آدم های آبرودار. – تهران. ۱۳۴۴.
56. رفیع افتخار. همسایه های پایین. روزنامه شماره ۵۱۱۹ همشهری. ۲۰۰۸.
57. ۲۰۱۱، ۴۷۴۵، №. ایران.

#### V. Internet saytlari :

58. <http://dissercat.com>
59. <http://www.boorsekala.com/cook/p/96/3791/%/قیماق/20قیماق>

60. <http://urmu.freeoda.com/meqalelar/dil> (واژه اصیل ترکی در پارسی - محمد صادق نائبی) (يك هزار)
61. <http://atila.persianblog.ir/post/6>: ترکی در زبان پارسی اثر مهندس محمد صادق نائبی: نگاهی به کتاب واژگان
62. <http://fa.m.wikipedia.org/wiki/> (یخنی- ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)
63. [http://fa.m.wikipedia.org/wiki/نون\\_قاتق](http://fa.m.wikipedia.org/wiki/نون_قاتق) (نون قاتق- ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)
64. <http://danizdamlasi.blogfa.com/post-87.aspx> (لهجه های اصفهانی و تهرانی فارسی) (نقش زبان ترکی در زبان پیدایش)
65. [http://fa.m.wikipedia.org/wiki/قره\\_نی](http://fa.m.wikipedia.org/wiki/قره_نی) (قره نی-ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)
66. [www.eccim.com/site/index.aspx](http://www.eccim.com/site/index.aspx). (اتاق بازارگانی)
67. <http://guila.irib.ir/index.php%3foption%3.aspx>. (بیلاق)
68. <http://maxspeed.ir/modules.php?checked=rnd53> (ترین خودرو ایران از راه رسید) (نمایش موضوعات ارزان)
69. <http://semorgh.com/culture/defawut/yeylaqi.aspx>. (بیلاق شکردهشت)
70. [www.fa.m.wikipediya.org/wiki/tobacum](http://www.fa.m.wikipediya.org/wiki/tobacum) (توتون- ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)
71. <http://dnoj.ir/post/بيد.html> (بید)
72. [http://fa.m.wikipedia.org/wiki/بيد\\_لباس](http://fa.m.wikipedia.org/wiki/بيد_لباس) (بید لباس ویکی پدیا، دانشنامه آزاد)
73. [www.eccim.com/site.aspx](http://www.eccim.com/site.aspx)
74. <http://mahomehraz.mihanblog.com/post/8>. (ماه مهراز - اجاق کور)